



# VATANPARVAR

MILLY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM OALOONIDIR!

● Gazeta 1992 ● 1 iyunidan chiqsa boshlagan ● 2021 №27 (3089)



18 OT HAQIDA  
HAQIQAT

16 TURK – CHIG'ANOQ  
ICHIDAGI DUR

10 JASORATDA TENGSIZ  
JANGCHI

4-5 YETAKCHILIKDA  
ISBOTLANGAN  
GOLIBLIK

## YURTNING ASL O'G'LONLARI – QALQONLARIMIZ!



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

**BIZ**  
HAQIMIZDA

@vatanparvar-bt@umail.uz  
t.me/mudofaavazirligi

t.me/mv\_vatanparvar\_uz

facebook.com/mudofaavazirligi

t.me/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi  
youtube.com/c/uzarmiya

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEVNING SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI DAVLAT RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTOI



Hurmatli rais!  
Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!  
Shanxay hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammiti barcha ishtirokchilarini qutlashdan mammunman. Qozog'iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga samimiy qabul va bugungi uchrashuvimiz yuksak darajada tashkil etilayotgani uchun bildirilgan minnatdorlik so'zlariga qo'shilaman.

Belarusning ShHTga qo'shilish jarayoni yakuniga yetgani bilan tabriklayman. Bu, hech shubhasiz, sheriklikning qo'shimcha imkoniyatlarini ochadi. Ushbu voqeа munosabati bilan hurmatli Aleksandr Grigoryevich Lukashenkonи samimiy qutlayman.

Biz Qozog'istonning Shanxay hamkorlik tashkilotiga faol va samarali raisligi yakunlarini yuksak baholaymiz, bugungi majlisimiz kun tartibiga kiritilgan masalalar va qarorlar loyihamini qo'llab-quvvatlaymiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Ushbu sammit xalqaro vaziyat keskinlashayotgan bir sharoitda o'tmoqda. Yangi vayronkor mojarolar paydo bo'lmoqda, global va mintaqaviy xavfsizlikka xavf va tahdidlar kuchayib bormoqda. Bu davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch kamayayotgan, qaramaqshilik va ziddiyatlar ortishi natijasida geosiyosiy keskinlik tobora o'sayotgan vaziyatda kechmoqda.

Xalqaro huquq me'yorlari va tamoyillari tez-tez buzilmoqda. Tobora kuchayib borayotgan inqiroz va muammolarni hal qilish bo'yicha jahon hamjamiyatida mavjud bo'lgan vositalar, afsuski, o'zining samaradorligini yo'qtdi.

Bunday murakkab vaziyatda ShHTning asosi bo'lgan tamoyillarga sodiqligimizni saqlash va yanada mustahkamlash favqulodda muhimdir. Ana shu tamoyillar tufayli Tashkilot bugungi yutuqlarga erishdi, xalqaro masalalarda yuksak nufuz va barqarorlashtiruvchi o'ringa ega bo'ldi.

Kelgisida ham "Shanxay ruhi"ning mustahkam zamini bo'lgan tamoyillar - o'zaro ishonch va manfaat, tenglik, madaniyatlar rang-barangligiga hurmat va umumiy taraqqiyotga intilish, qarorlar qabul qilishda konsensus tamoyilining o'zgarmasligi va Tashkilotning bloklardan xoli maqomini saqlab qolish, uning ochiqligi, uchinchi mamlakatlarga qarshi qaratilmagani, iqtisodiy, harbiy va siyosiy salohiyatidan qat'i nazar, barcha ishtirokchilarining teng huquqliligi va suverenitetini hurmat qilishga qat'iy rivoj etish muhim, deb hisoblaymiz.

Hozirgi kunda ShHT hamjhahatligi zaflashishiga yo'q q'ymaslik muhimdir. Biz "ShHT oilasi" jipsligini kuchaytirishimiz, birgalikda rivojlanish

tamoyilini hayotga izchil tabbiq etib, ochilayotgan yangi imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanshimiz zarur.

Buning uchun bizda barcha shart-sharoitlar mavjud. Jalon aholisining 40 foizdan ortig'i, global yalpi ichki mahsulotning chorak qismidagi ko'prog'i mamlakatlarimiz hissasiga to'g'ri keladi. Hech shubhasiz, ushbu beqiyos salohiyatni ro'yoba chiqarish bizdan iqtisodiy sherklikning yangi modellarini shakllantirishni va ShHT doirasida barqaror rivojlanishning uzoq muddatli kun tartibini ishlab chiqishni talab etadi.

Shuni ta'kidlashni istardimki, O'zbekiston 2030-yilga borib, milliy iqtisodiyat hajmini ikki barobar oshirishga qaratilgan chuqur o'zgarishlarni davom ettirmoqda. Bunga, avvalo, innovatsion va yuqori texnologiyali tarmoqlarni shakllantirish, "yashil" va raqamli texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanadigan energetika ulushini tubdan oshirish hisobidan erishishga intilyapmiz.

Hurmatli hamkasblar!

Bizing nuqtayi nazaramiz bo'yicha ShHT oldida turgan eng dolzarb vazifalar haqida qisqacha to'xtalib o'tishga ijozat bergaysiz.

**Birinchi.** Global darajada ishonch taqchilligi misli ko'rilmagan darajaga chiqqan sharoitda umumiy xavfsizligimizni ta'minlashda yangi yondashuvlarni izlash zarurati o'sib bormoqda.

Shu bois hozirgi paytda umumiy xavfsizlik va taraqqiyot yo'lidagi hamjhahatlik bo'yicha biz ilgari surgan Samarqand tashhabbusining ahamiyati har qachongidan ham dolzarbdir.

ShHTning Yaxshi qo'shnichilik, ishonch va transchegaraviy sherklik kodeksi qabul qilinishi hozirgi yangi sharoitda muloqotni mustahkamlash va ko'p tomonlama hamkorlikni yanada chuqurlashtirish imkonini beradi, deb hisoblaymiz.

**Ikkinci.** Iqtisodiy sohada hamkorlik bo'yicha strategik yuksalishga erishish.

O'zbekistonning Tashkilotga a'zo davlatlar bilan savdo aylanmasi o'tgan yil yakunlari bo'yicha 20 foiz, joriy yil boshidan buyon esa yana 15 foizga o'sdi.

ShHT doirasida savdo jarayonlarini soddalashtirish bo'yicha bitimni ishlab chiqish vaqt keldi, deb hisoblaymiz. Hujjatga savdodagi to'siqlarni bartaraft etish, texnik reglamentlar va sertifikatlash, fitosanitariya va veterinariya nazorati tizimlarini yaqinlashtirish bo'yicha qo'shma choratadbirlarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari, transchegaraviy elektron tijoratni rivojlanish bo'yicha jahondagi tendensiyalarni hisobga oлган holda, ushbu sohada amaldagi raqamli

savdo platformalari integratsiyasini ko'zda tutuvchi hamkorlik dasturini tayyorlashni taklif etamiz.

**Uchinchи.** Sanoat kooperatsiyasi dasturlarini qo'llab-quvvatlash.

Eng avvalo, infratuzilma, sanoatning yuqori texnologiyali tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohalardira o'zaro investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taklif etamiz. Bunda ushbu loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini puxta o'ylab ko'rish, ShHT Jamg'armasi va Taraqqiyot bankini tashkil etish masalasini ko'rib chiqishga qaytish muhim.

**To'rtinchi.** "Sharq-G'arb" va "Shimol-Janub" yo'nalishlari bo'yicha inklyuziv transport tizimlarini shakllantirish mamlakatlarimiz iqtisodiy salohiyatini samarali rivojlanishish imkonini beradi.

Alohibda ta'kidlab aytaman: transport yo'lklari ko'p variantli bo'lishi bu butun mintaqamiz barqaror rivojlanishining eng muhim shartidir.

Shuningdek, Logistika jarayonlarini raqamlashtirish rejasini ishlab chiqish, shu jumladan, mamlakatlarimiz chegaralari orqali o'tadigan mahsulotlar haqidagi ma'lumotlarning elektron almashuvini tashkil etishni taklif qilamiz.

**Beshinchi.** ShHT makonida zamonaviy va ishonchli energetika infratuzilmalarini kengaytirish.

Biz O'zbekistonda "yashil" energetikani jadal rivojlanishish bo'yicha katta dasturni qabul qildik. Yiliga ikki gigavatt quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirmoqdamiz. Sanoat darajasida "yashil" vodorod ishlab chiqarish loyihasi ustida ish boshlandi.

Qayta tiklanadigan energetikaga investitsiya va texnologiyalarni jalb etishni rag'batlantirish bo'yicha hamkorlikning kompleks rejasini ishlab chiqishni taklif etamiz.

**Oltinchi.** Jadallashtirilgan raqamli transformatsiya.

Bizing fikrimizcha, raqamli iqtisodiyotga o'tish, "sun'iy intellekt"ni, ilg'or IT qarorlarini joriy etish mamlakatlarimiz raqobatbardoshligida hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shu borada bilimlar, tajriba va eng yaxshi amaliyotlar almashuvni, IT parklarning tizimli hamkorligini rivojlanishish maqsadida "ShHT kelajak texnologiyalari" dasturini ishlab chiqish tarafdomiz.

**Yettinchi.** Ijtimoiy rivojlanish va himoya sohasida ShHT mamlakatları hamkorligi bo'yicha "Yo'l xaritası"ni qabul qilish imkoniyatini ko'rib chiqishni taklif etamiz.

Ishonchim komilki, aholi hayot darajasini yuksaltirish va hududlarni,

birinchi navbatda, qishloq joylarni rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalarni amalga oshirish 2030-yilgacha mo'ljallangan eng muhim maqsadlarga erishish yo'lida umumiyo hissa bo'ladi.

**Sakkizinchi.** Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ularni yetkazib berish imkoniyatlari nomma-nom aks ettirilgan mamlakatlarimizning agrosanoat sohasidagi salohiyati haqidagi ma'lumotlarni birlashtiradigan "ShHT oziq-ovqat xavfsizligi atlasi" qo'shma elektron platformasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilar! Xavfsizlikka tahdid solayotgan zamonaviy xavf va xatarlarga qarshi kurashishda mamlakatlarimiz vakolatli organlari faoliyatini yaqindan muvofiqlashtirishni, shu jumladan, ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi yo'nalishida davom ettirish zarur.

Markaziy Osiyoning ajralmas qismi bo'lgan va mintaqaviy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadigan qo'shni Afg'onistonning vaziyat haqida to'xtalib o'tmoqchiman.

Afg'onistonning hozirgi ma'muriyati bilan munosabatlarni o'rnatish borasidagi yondashuvlarni turli ekani ma'lum. Aminmanki, Kobul bilan muloqotlarni saqlash butun mintaqanining xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot borasidagi manfaatlarga mos keladi. Tobora ko'proq davlatlar buni tushunib yetmoqda.

Shu munosabat bilan, "ShHT-Afg'oniston" muloqot guruhining faoliyatini qayta tiklash haqidagi taklif hamon dolzarb bo'lib qolmoqda.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Sammitimiz ShHTning doimiy faoliyat yurituvchi organlari - Pekin shahridagi Kotibiyat va Toshkent shahridagi Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi Ijroiya qo'mitasi tashkil etilganiga 20 yil to'lgan yilda o'tmoqda. Qisqa davrda ular sheriklikning samarali mexanizmi sifatida mustahkam qaror topdi va ko'p tomonlama institutlar o'rtasida munosib o'rinn egalladi.

Biz ShHTni yanada rivojlanishish jarayonlari tarafdomiz va Tashkilotimizning faoliyatini takomillashtirish haqidagi taklifni qabul qilishga tayyormiz.

So'zning yakunida Shanxay hamkorlik tashkilotiga raislikni Xitoy Xalq Respublikasi qabul qilib olayotgani munosabati bilan hurmatli Si Szinpin Janobi Oliylariga bildirilgan tabrik so'zlariga qo'shilaman.

O'zbekiston ShHT doirasida ko'p qirrali sheriklikni yanada kengaytirishga sodiq ekanini yana bir bor tasdiqlayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

Bitiruv – 2024

Ilm yo'lidan ketish niyatidagi har bir yosh bugun magistraturada o'qish tadorigida. Bu borada ta'limning ushbu bosqichini izlanuvchilarni ilm bilan bog'lovchi oltin ko'prikkaga mengzash mumkin.

Shu ma'noda Qurolli Kuchlar akademiyasini tamomlayotgan ulkan ilmiy tadqiqotlar ostonasidagi magistrlarning bitiruvi tantanaga aylanib ketdi.

Unda mudofaa vazirining birinchi o'rinnbosari – Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig'i general-major Shuxrat Xalmuxamedov, mudofaa vaziri o'rinnbosari general-major Hamdam Qarshiyev, Qurolli Kuchlar akademiyasi rahbariyati, magistr ofitserlar va ularning oila a'zolari ishtirot etdi.

Qurolli Kuchlar akademiyasini muvaffaqiyatli tamomlagan sirtqi va kunduzgi ta'lif magistrlariga diplomlar tantanali ravishda topshirildi.

Qurolli Kuchlar akademiyasining Maxsus (xorijiy harbiy kadrlarni tayyorlash) fakultetida magistrlik kursini tamomlagan Markaziy Osiyo davlatlari ofitserlari ham vazirlik rahbariyati va akademianing professor-o'qituvchilariga o'z minnatdorligini bildirdi.



Mualif suratga olgan

# Magistratura – oltin ko'prikk



tadqiqotchilarga ham aylandi. Umid qilamizki, tez fursatda ular orasidan falsafa va fan doktorlari, dotsentlar va professorlar yetishib chiqadi.

**Mayor Aziz NORQULOV,  
“Vatanparvar”**

- Qurolli Kuchlar akademiyasi magistratura bosqichini tamomladim,
- deydi bitiruvchilardan biri mayor Abduxalil Mirzamuratov. - Qo'shinlarni operativ-taktik qo'llash bo'yicha hamkorlikdagi kuch tuzilmalari bilan jangovar vazifalarni bajarish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarimizni hamkorlikda o'quvlar o'tkazish orqali mustahkamladik. Xalqaro jangovar harakatlar tajribalarini o'rganib, yangi taktik harakat va usullarni amalda qo'llab, nostonart qarorlar qabul qilishda ulardan samarali foydalananish bo'yicha ham ko'nikmamizni oshirdik.

Tadbirda so'z olganlar barchani yangi ilmiy daraja bilan tabriklab, kelgusi xizmatlariga muvaffaqiyat tiladi. O'z navbatida, bitiruvchilar ham magistrlik darajasining harbiy xizmatchi faoliyatidagi ahamiyati, imkoniyatlari haqida so'z yuritib, egallagan yangi bilimlarini o'z harbiy burchini to'liq ado etishga safarbar qilishini ta'kidlab, tantanali va'da berdilar.

Endi bitiruvchilar nafaqat harbiy xizmatchi, o'z o'rniда ilmiy



Toshkent harbiy okrugiga qarashli "Chirchiq" umumqo'shin poligonida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tarkibiga kiruvchi mamlakatlar ishtirokida belgilangan shtat qurollaridan otish bo'yicha xalqaro musobaqa bo'lib o'tdi. Unda o'zbekistonlik harbiy xizmatchilardan tashqari Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Tojikiston davlatlari vakillari ishtirok etdi.



# YETAKCHILIKDA ISBOTLANGAN G'OLIBLIK

Championat dasturiga ko'ra, barcha ishtirokchilar yetib kelgandan keyin qur'a tashlash, tartib-qoidalar bilan tanishtirish va musobaqaning tantanali ochilish marosimi o'tkazildi. Ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri o'rinnbosari polkovnik Qodirjon Tursunov, Qirg'iziston Respublikasi Mudofaa vazirligi Jangovar tayyorgarlik bosh boshqarmasi boshlig'i polkovnik Olmosbek Kojasov so'zga chiqib, musobaqaning do'stona, shu bilan birga murosasiz kurashlar ostida o'tishiga ishonch bildirdi. Tadbir davomida desantchilar va faxriy qorovul bo'linmalarining chiqishlari mehmonlar tomonidan olqishlar bilan kutib olindi.

Musobaqa qatnashchilari uch kun davomida "Makarov" pistoleti va "Kalashnikov" avtomatidan otish bo'yicha o'z mahoratlarini namoyish etgan holda sovrinli o'rinnlar uchun murosasiz kurash olib bordi. Championat shartlariga ko'ra, har ikki yo'nalihsida ishtirokchi davlatlar sharafini bir


nafar ayol, ikki nafar erkak harbiy xizmatchi yakkalik hamda umumjamoa hisobi bo'yicha himoya qildi. Dastlab "Makarov" pistoletidan 25 metrlik masofadagi nishonlarga otish bo'yicha bellashuvlar tashkil etilib, musobaqaga rasmii start berildi.

Ushbu yo'nalihsida mamlakatimiz sharafini kapitan Quvonch Berdixanov, kichik serjant Artyom Chernishev, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Sitora Ergashboyeva himoya qildi. Quvonarlisi shundaki, uch nafar harbiy xizmatchimiz ham sovrindorlar qatoridan joy oldi. Quvonch Berdixanov va Sitora Ergashboyeva shohsupaning birinchi pog'onasiga ko'tarilgan bo'lsa, Artyom Chernishev ikkinchi o'rinn sohibiga aylandi.

Birinchi kun ko'rsatilgan natijalarga ko'ra, O'zbekiston terma jamoasi musobaqada mutlaq peshqadamga aylandi. Championatda g'oliblikni qo'lga kiritish uchun vakillarimiz "Kalashnikov" avtomatidan otish shartida ham raqiblarga

munosib qarshilik ko'rsatishi lozim edi. Aynan bunday vazifa dastlab kichik serjant Yana Fatxi tomonidan muvaffaqiyat bilan bajarildi. Ajoyib natija bilan barcha raqiblarini ortda qoldirgan Yana o'zining tug'ilgan kuni uchun ham, O'zbekiston terma jamoasi uchun ham munosib sovg'a taqdirm qildi. U rossiyalik Yuliya Maxovani bir ochko, qirg'izistonlik Ulkan Musayevani esa 16 ochko bilan ortda qoldirdi. Erkaklar o'rtasidagi yakkalik bahslarida ushbu yo'nalihsida g'olibligi mayor Mixail Gladishev (Rossiya Federatsiyasi)ga nasib etdi. U murosasiz kurashda hamyurtimiz Musulmon Ne'matov hamda belaruslik Denis Latsetdan yaxshiroq natija ko'rsatdi.

Musobaqaning ikki yo'nalihsida qayd etilgan umumiy natijalar yakunda O'zbekiston terma jamoasining mutlaq g'olibligini ta'minladi. Vakillarimiz 1 671 ochko bilan shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Rossiya Federatsiyasi 1 644, Belarus Respublikasi 1 568 ochko bilan keyingi o'rnlarni band etdi.





**"Makarov" pistoleti yo'nalishi.** 25 metr.  
**Ayollar:** 1. Sitora Ergashboyeva (O'zbekiston) – 278 ochko. 2. Anita Radchenko (Rossiya Federatsiyasi) – 275 ochko. 3. Aljan Amirjanova (Qozog'iston) – 266 ochko.

**Erkaklar:** 1. Quvonch Berdixanov (O'zbekiston) – 290 ochko. 2. Artyom Chernishev (O'zbekiston) – 284 ochko. 3. Kenjebek Bolotbayev (Qirg'iziston) – 279 ochko. Umumjamoa hisobi. 1. O'zbekiston – 852 ochko. 2. Rossiya Federatsiyasi – 813 ochko. 3. Qozog'iston – 801 ochko.

**"Kalashnikov" avtomati yo'nalishi.**

100 metr. **Ayollar:** Yana Fatxi (O'zbekiston) – 279 ochko. 2. Yuliya Maxova (Rossiya Federatsiyasi) – 272 ochko. 3. Ulkan Musayeva (Qirg'iziston) – 257 ochko.

**Erkaklar:** 1. Mixail Gladishev (Rossiya Federatsiyasi) – 286 ochko. 2. Musulmon Ne'matov (O'zbekiston) – 274 ochko. 3. Denis Latset (Belarus Respublikasi) – 273 ochko. Umumjamoa hisobi. 1. Rossiya Federatsiyasi – 831 ochko. 2. O'zbekiston – 819 ochko. Belarus

Respublikasi – 774 ochko. Har ikki yo'nalish bo'yicha umumjamoa hisobi. 1. O'zbekiston – 1 671 ochko. Rossiya Federatsiyasi – 1 644 ochko. 3. Belarus Respublikasi – 1 568 ochko.

Bahslarni kuzatish jarayonida terma jamoamiz a'zosi Quvonch Berdixanovning o'ttizta imkoniyatdan 20 ta o'nlik, 10 ta to'qqizlik nishonni mo'ljalga olganligi, ayrim qatnashchilarining o'qni ketma-ket bitta nuqtaga yo'naltirishi kabi musobaqalarda kam uchraydigan holatlar kuzatildi. Buning natijasida musobaqa hakamlari nishonlardagi o'q tekkan nuqtalarni lupa yordamida aniqlab, ochkolar sinchkovlik bilan hisob-kitob qilindi. Aynan mana shu kabi vaziyatlar championatning murosasiz kurashlar ostida o'tishini ta'minladi.

– Kalqaro musobaqada ilk bor qatnashmoqdaman. Championatning "Kalashnikov" avtomatidan otish shartida 272 ochko jamg'arishga muvaffaq bo'ldim.

Bu natija eng oxirgi ishtirokchilar chiqishiga qadar peshqadam bo'lib turishimni ta'minladi, – deydi O'zbekiston terma jamoasi a'zosi, III darajali serjant Abdullo Qodirov. – Ammo yakunda sovrindorlar qatoriga kirishim uchun bor-yo'g'i bir ochko yetmadi. Mashg'ulotlarda, okrug va respublika miqyosida qayd etgan 288 ochkolik shaxsiy rekordimni ko'rsata olganimda, bemałol birinchi o'rinni qo'lga kiritardim. Shunga qaramay, umumjamoa hisobida xalqaro musobaqaning g'olib bo'lganimdan mammunman.

Bellashuvlardan keyin championat ishtirokchilari uchun "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi bo'ylab ekskursiya tashkillashtirildi. Musobaqaning tantanali yopilish marosimiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali marosimda g'olib va sovrindorlarga kubok, diplom, medallar, qimmatbaho sovrin hamda esdalik sovg'alar topshirildi.

**Asror RO'ZIBOYEV,**  
**"Vatanparvar"**





Istiqlol yillarida  
O'zbekiston  
Respublikasi  
Qurolli Kuchlari  
Maxsus  
operatsiyalar  
kuchlari og'ir  
va sharaflifi  
yo'lni bosib,  
mustaqilligimiz  
va xalqimiz  
farovonligini  
ta'minlash yo'lida  
yuksak xizmat  
ko'rsata oldi.



# 26 yillik tarixiy sana

Maxsus operatsiyalar kuchlari tashkil topganining 26 yillik sanasi harbiy qismda bayramona tarzda nishonlanib, unda Mudofaa vazirligi mas'ullari, tizimdagisi ko'plab soha fidoyilar, keksa-faxriylar, xizmat burchini bajarish vaqtida qahramonlarcha halok bo'lgan harbiy xizmatchilarining oila a'zolari jam bo'ldi.

Saf maydoni uzra shaxsiy tarkib saf tortib, jangovar bayroq mag'rur hilpiradi.

Tantanali marosimni ochib bergan mudofaa vazirining o'rinnbosari polkovnik Qodirjon Tursunov dastavval sana munosabati bilan mudofaa vazirining tabrigini o'qib eshittirdi. Vazir o'rinnbosari ushbu tarixiy kun bilan barchani qutlar ekan, har qanday vaziyatda ham Vatan xizmatiga shay bo'lib kelayotgan harbiy xizmatchilarimizni, tizimda mehnat qilayotgan zahmatkash soha egalarining fidoyiliği hech qachon unutilmasligini g'urur bilan tilga oldi.

Sir emaski, 1999–2000-yillarda Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani hamda Surxondaryo viloyatining Uzun va Sariosiyo tumanlari tog'li hududlaridagi to'qnashuvlarda, 2005-yildagi Andijon voqealarida Maxsus operatsiyalar kuchlari harbiy xizmatchilarining jonbozligini xalqimiz yaxshi eslaydi.

Ayniqsa, 2000-yilda Surxondaryo viloyatining tog'li hududlarida bir guruh g'alamlislarning yo'li to'silgani barchanining yodida bo'lsa kerak. Tun-u kun davom etgan

to'qnashuvlarda jon olib, jon berildi. O'nlab dushman kuchlari yo'q qilindi. O'sha mudhish voqeasida millatimizning bir qancha norg'ul yigitlarini ham olib ketdi. Ular xalq ichida doston bo'ldi va mudom yod etilmoqda.

Uchrashuvdagi do'st-birodarlar tilida Elomon, Yunusjon, Ulug'bek, Sayyor, Bobur, Qahramon kabi nomlarni eshitasiz. Ularning safdoshlari o'sha mudhish damlarni eslar ekan, yigitlar ko'rsatgan jasorat, ulardagi mardlik va shijoat armiyamiz o'g'lonlari uchun chinakam namuna ekanini g'urur bilan tilga oldi.

Ayniqsa, harbiy qismiga tashrif buyurgan mehmonlar orasida marhum qahramon jangchilarining ota-onalari, oilasi, yaqinlari barchanining ko'z o'ngida bo'ldi. Chunki ko'ksini el tinchligi uchun dushman o'qiga tutgan o'g'il tarbiyalash har qanday ota-ona uchun ulkan sharaf.

Tabrik uchun so'z olganlar ham sohada olib borilayotgan zamonaviy islohotlar, yaratilgan shart-sharoitlarning yorqin ifodasi xalqaro maydonlarda qo'rga kiritilayotgan yutuq va g'abalalar misolida aks etayotganini ta'kidlab o'tdi.

Bayramona tadbir davomida harbiy qism shaxsiy tarkibining tantanali marsh





yurishi, xizmat itlari ishtirokida ko'rgazmali chiqishlar, faxriy qorovulning o'ziga xos namoyishlari, Maxsus operatsiyalar kuchlari harbiy xizmatchilarining pistirmaga qarshi harakatlari, qo'ljangi ko'rgazmalari barchaga yuqori kayfiyat baxsh eta oldi.

Harbiy qismidagi "Xotira maydoni"ga gul qo'yish marosimida esa halok bo'lgan mard o'g'lonlar yana bir bor xotirlandi.

Marhum jangchi Elomon Otajonovning otasi Xolmurod Otajonov va onasi Yanglish Otajonova o'g'illari haqida xotiralarni yoshlarga ulashdi.

- O'g'lim kichkinaligidan harbiy bo'laman, derdi. Xulqi yaxshi, o'rtoqlari bilan ahil edi. Ko'p eslayman, o'g'lim

armiyadan qaytsa, mashina olib, meni aylantirib yurishni niyat qilar edi, - deya eslaydi Yanglish Otajonova. - Ta'tilga kelganida qarindoshmi, do'stimi - hammasining uyiga birma-bir kirib chiqardi. Men esa qachon uylanasan, deb qistovga olganim olgan edi. "Opa (aya ma'nosida), poligonga borib kelay, so'ng bir qiz haqida aytaman,sovchi bo'lib borasiz", degandi. Endi u qiz, u kunlar... U Vatan xizmatini birinchi o'ringa qo'yar edi...

Bayram tantanalarini harbiy qismning ma'nnaviyat markazida davom etdi. Kuy-ko'shiqlar sadolari ostida Maxsus operatsiyalar kuchlarining tashkil etilishi

va rivojlanishi yo'lida mehnat qilayotgan, yosh avlodni tarbiyalashda namuna bo'lib kelayotgan bir guruh ustozlar, nafaqadagi faxriylar, harbiy xizmatchilar, marhum

qahramonlarning oila a'zolari yuksak sharaf ila taqdirlandi.

**Kapitan Bobur ELMURODOV,**  
"Vatanparvar"



# Yangi O'zbekiston

## taraqqiyotida vatanparvarlikning o'rni

“Vatanparvarlik o‘zi nima? Uning aniq shakli, tamoyillari bormi? Vatanparvar inson qanday fazilatlarga ega bo‘lishi lozim? Biz haqiqiy vatanparvarmizmi?”  
kabi savollarga Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug qo‘sishinlari qo‘mondonligi tomonidan “Yangi O‘zbekiston rivojlanishida vatanparvarlikning o‘rnini va roli” mavzusida o‘tkazilgan ilmiy-uslubiy konferensiyada atroflichcha ma’lumotlar berib o‘tildi.



Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazida o'tkazilgan konferensiyada harbiy okrug qo'mondoni general-mayor Farhodjon Sermatov, Nukus harbiy prokurori adliya polkovnigi Ulug'bek Abdirahimov, Ajiniyaz nomidagi Nukus pedagogika instituti rektori Quvondiq Kadirov, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti professor-o'qituvchilar, kuch tuzilmalari vakillari, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Xorazm viloyati mudofaa ishlari boshqarma va bo'limlari boshliqlari, ularning o'rinosarlarli, maktablardagi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilar, harbiy xizmatchilar va Ichki ishlar vazirligi Nukus "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litsevi o'quvchilarini ishtirok etdi.

Konferensiyani harbiy okrug qo'mondoni o'chib berdi. Jumladan: "Prezidentimiz shu yilning mart oyida Urganch shahridagi Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyiga tashrif buyurganida o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashimiz, vatanparvarlik o'zi nimaligini ongiga chuqr singdirishimiz kerakligi haqida topshiriq berib o'tgan edi. Ushbu topshiriqlarni bajarish maqsadida mana shu konferensiyamizni bugungi kunda eng dolzarb masala, ya'ni vatanparvarlikning asl mazmunini yetkazishga ba'sishladik.

Ko'pchilik vatanparvar inson haqida gap ketganda harbiy libos kiyganlarni tushunadi. Lekin vatanparvar bo'lish, yurtga sadoqat bilan xizmat qilish har bir yurtdoshimizning muqaddas burchi ekanini unutmasligimiz kerak", deya ta'kidlab o'tdi okrug qo'mondoni.

Konferensiya vatanparvarlik tushunchasi, uni shakllantirishda tarixiy, ma'naviy va madaniy merosimizning o'rni va roli mavzusi ko'tarilib, atroficha tushuntirildi. Vatanparvarlik tilda emas, dilda bo'ladi. Uning asl mohiyati insonga Vatan u uchun nima qilib berdi, degan savolga emas, balki inson Vatan uchun nima qildi, degan savolga javob qidirishga chorlaydi.

Vatanparvarlik bu o'z shaxsiy manfaatlarini Vatan va unda istiqomat qilayotgan xalq manfaatlari bilan uyg'unlikda ko'ra olish, yurt ravnaqi yo'lida kamarbasta bo'lish, uning istiqboli uchun kerak bo'lsa o'z jonini tikish kerakligi konferensiya doirasida turli misollar bilan ifodalab berildi.

Konferensiya davomida harbiy xizmatchilarning "Buyuk ajodalarimizning mardligi, matonati, jasorati, vatanparvarligi va ularning bugungi avlod uchun ibrat namunalari", "Jadidchi bobolarimizning ilm-ma'rifat va ma'naviy merosining vatanparvarlik tarbiyasidagi ahamiyati", "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarida vatanparvarlikni rivojlantirishning roli va o'rni", "Yoshlarda vatanparvarlik va islohotlarga daxldorlik hissini shakllantirishda ma'naviy tarbiya va milliy ruhning ta'siri", "Jamoalarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda psixologik omillar" kabi mavzular bo'yicha ma'ruzalari tinglandi.

Shuningdek, "Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida "O'zbekiston - 2030" strategiyasi islohotlarini amalga oshirishda fuqarolar vatanparvarligining ahamiyati" borasida Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy tadqiqotchilarining ma'ruzalarini ham tinglandi.

Tadbir davomida mavzu yuzasidan fikr-mulohazalar almashinib, savollarga batapsil ma'lumotlar berib o'tildi. Konferensiya ishida ko'rib chiqilgan ma'lumotlar umumlashtirilib, qo'shinlarga qo'llanma sifatida taqdim etilishi bo'yicha ko'rsatma berildi.

**Podpolkovnik Timur NARZIYEV**  
**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug**  
**matbuot xizmati boshlig'i**



A portrait of a man in a dark blue military uniform with gold insignia on the shoulders and a pilot's wings insignia on the chest. He is speaking into a microphone at a wooden podium. A circular emblem is visible on the podium to his right.

"Yangi  
O'zbekiston  
rivojlaniishi  
yo'lida birligalikda  
harakat qilish  
har qanday  
soha xodimlari,  
shu zaminda  
yashayotgan har  
bir fuqaroning  
burchidir.  
Ayniqsa, o'sib  
kelayotgan  
yosh avlodni  
shu yurtning

shu yurulting  
munosib vorislari etib tarbiyalash har  
birimizning sharaflı vazifamizdir. Yosh avlodni  
Vatanga sadoqat ruhidä tarbiyalash, ularning  
qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflı va  
muqaddas burch ekanini chuqur singdirish,  
qadimiylar tariximiz va madaniyatimiz, jonasjon  
Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida  
fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz  
bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish  
tuyg'usini shakllantirishimiz lozim".

General-mayor  
Farhodjon SHERMATOV,  
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug  
qo'shinlari qo'mondoni



“Vatanparvarlik  
- bu o‘z shaxsiy  
manfaatlarini  
Vatan va unda  
istiqomat qiluvchi  
xalq manfaatlari  
bilan uyg‘unlikda  
ko‘ra olish, Vatan  
ravnaqi yo‘lida  
kamarbasta  
bo‘lish, Vatan  
istiqboli uchun  
kerak bo‘lsa o‘z  
ionini tikishdir.

inson – atrofida sodir bo'layotgan voqealarga g'amxo'rlik qiladigan, nafaqat o'z oilasi va do'stlarini, balki uning yordamiga muhtoj bo'lgan mutlaqo notanish odamlarni ham yaxshi ko'radigan, doim hayot quvonchiga ega bo'lgan shaxs. U har doim jamiyat uchun foydali bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi".

**Podpolkovnik  
Aziz RAVSHANOV,  
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug  
tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar  
boshqarmasi bo'lim boshlig'i**



**Mayor Zuhriddin ALIJONOV,  
Nukus garnizoni ma'nnaviyat  
va ma'rifat markazi boshlig'i**

**Chegara qo'shinlarida**

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlaridagi O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchilarining beshinchi forumi mamlakatimizning turli hududlaridagi Chegara qo'shinlari harbiy qismlarida faoliyat olib borayotgan Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchilarini bir yerga jamladi.

# Beshinchi forum ko'tarinki ruhda o'tdi



O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqi hamda Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda ikki kun davomida o'tkazilgan forumning dastlabki kuni ishtirokchilar tomonidan mustaqillik yillarda jangovar-xizmat vazifalarini bajarish chog'iда halok bo'lgan qahramon chegarachilarining xotirasiga hurmat bajo keltirish bilan boshlandi.

Shundan so'ng poytaxtimizdagi "Yoshlar ijod saroyi"da hududlarda g'oliblikni qo'lg'a kiritgan harbiy qismlar jamoalari o'rtaida "Ajodolar izidan" intellektual o'yini hamda "Eng ilg'or boshlang'ich tashkilot yetakchisi" ko'rik-tanlovining respublika bosqichi o'tkazildi.

Ta'kidlash joizki, ishtirokchilarni nafaqat mantiqiy, balki strategik fikrleshinga o'rgatuvchi "Ajodolar izidan" intellektual musobaqasi davomida yoshlar o'z aql-zakovati, o'tkir zehni va kitobxonlik madaniyatini amalda namoyon etish imkoniga ega bo'ldi.

- Chegara qo'shinlari harbiylarining bu o'yindagi ishtirokini yuqori baholaymiz. Chunki har bir ishtirokchi 1-bosqichda - to'rtta va ayni damdagi 2-bosqichda - oltita kitobnai juda yaxshi o'zlashtirganiga guvoh bo'lyapmiz. Jamoalar o'ynalayotgan savollarning barchasiga to'g'ri va to'liq javob berayotgani bizni juda quvontirmoqda, - deydi O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi mas'ul xodimi Nargiza Tojimurotova.

Shu kuni Chegara qo'shinlaridagi Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotlari yetakchilarini tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni sarhisob qilinib, yoshlarda vatanparvarlik, mas'uliyat va javobgarlik hissini yanada kuchaytirish borasida kelgusida amalga oshirilishi zarur bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab olindi.

"Eng ilg'or boshlang'ich tashkilot yetakchisi" ko'rik-tanloving yakuniy bosqichida esa faoliyati davomida yuqori natijalarga erishayotgan yetakchilarining natijalari, ularning bilim va salohiyati sinovdan o'tkazildi.

Qizg'in ruhda kechgan har ikki musobaqada ham eng munosiblar aniqlanib, joriy yilning oktabr oyida kuch tuzilmalari o'rtaida o'tkaziladigan final bosqichiga yo'llanmani qo'lg'a kirdi.

Forum doirasidagi yorqin taassurotlarga boy tadbirdlardan yana biri bu "Qo'mondon va yoshlar" uchrashuvni bo'ldi. Davlat xavfsizlik xizmati Raisining o'rinosi - Chegara qo'shinlari qo'mondoni general-major S. Xusanov hamda mustaqillik yillarda barcha davrlarida qo'shinga rahbarlik qilgan faxriy qo'mondonlar va ustoz faxriylar ishtirokida respublikamizning barcha hududlarida davlat chegaralarini qo'riqlayotgan yoshlarni onlayn tarzda jamlagan uchrashuv avvalida qo'shinlar qo'mondoni so'nggi yillarda sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, shu jumladan yosh harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariiga yaratilayotgan shart-sharoit hamda qulayliklar xususida batafsil to'xtalib o'tdi.

Samimiy muloqot tarzida o'tgan uchrashuv davomida bugun dunyo aholisining 20 foizini, mamlakatimiz aholisining esa 54 foizini yoshlar tashkil etayotgani biz uchun katta yutuq ekani ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, faxriy qo'mondonlar o'zlarini rahbarlik qilgan davrlarda amalga oshirilgan islohotlar va yillar mobaynida to'plangan boy hayotiy tajribalari xususida bir-biridan qiziqarli ma'lumotlarni so'zlash bilan birga yoshlar

tomonidan yo'llangan turli mavzulardagi savollarga ham javob berdi.

Forumga jangovar-xizmat faoliyatida yuqori natijalarga erishgan bir guruh yosh harbiy xizmatchilarining ota-onalari ham taklif etilib, sadoqatli, vatanparvar farzandlarni voyaga yetkazganlari uchun ularga minnatdorlik bildirilib, Chegara qo'shinlari qo'mondonining tashakkurnomalari taqdimga etildi.

Kechagina farzandini katta hayotga yo'llagan ota-onalar bugun uning kamolini ko'rib, nihoyatda xursand bo'ldi.

- O'g'lim yoshligidan harbiy xizmatga qiziqqani uchun shu yo'nalishda tahsil oldi. Ayni damda Vatanimiz sarhadlarini himoya qilmoqda. Uning xizmatlarini ardoqlab, bugun otasi ikkimizga tashakkurnoma taqdimga etishganidan juda xursandmiz. Farzandimiz bundan keyin ham yurtimizga sadoqatli xizmati bilan yuzimizni yorug' qilishiga ishonamiz, - deydi kapitan-leytenant Navro'zjon Toshboyevning onasi Marhabo Suyunova.

Shuningdek, tadbir davomida "Ajodolar izidan" intellektual musobaqasi hamda "Eng ilg'or boshlang'ich tashkilot yetakchisi" ko'rik-tanlovi g'oliblari ham qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Yorqin daqiqalar va yodda qolarli onlarga boy tarzda o'tgan forum DXX Chegara qo'shinlaridagi O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchilarining kelgusidagi ish faoliyatlarini muvofiqlashtirishga hamda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishi shubhasiz.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari



Eshonqul Ismoilov  
1902-yil 1-martda  
Samarqand viloyatining  
Jizzax tumanidagi Turk  
qishlog'ida (hozirgi  
Jizzax viloyatining  
G'allaorol tumani)  
dehqon oilasida  
tug'ilgan. U to'liq  
bo'Imagan o'rta  
ma'lumotni olib,  
kolxozda ishlay  
boshtagan. E. Ismoilov  
1930-yildan boshlab o'z  
qishlog'idagi kolxozda  
fermer xo'jaligi rahbari  
bo'lib ishlagan.

# Tengsiz jangchi



1942-yil oktabr oyida E. Ismoilov Samarqand viloyatining Poyariq tumani harbiy ro'yxatga olish va qabul qilish qo'mitasi tomonidan armiya safiga xizmatga chaqirilgan. Eshonqul Ismoilov 1943-yil fevral oyidan boshlab Ikkinchichahon urushi janglarida, xususan O'rta Osiyo harbiy okrugining turli qismalarida xizmatni o'tagan. Shuningdek, Janubig'arbiy qismida 74-gvardiya o'qchi diviziyasida, 1943-yil oktabrda 3-Ukraina, 1944-yil iyuldan 1-Belarus frontida jang qilgan.

1945-yil fevralga kelib qizil armiya gvardiyasi 74-gvardiya o'qchi diviziyasining 240-gvardiya o'qchi polkida, 29-gvardiya o'qchi korpusida, 1-Belarus fronti 8-gvardiya armiyalarida avtomatchi bo'lib qonli janglarda qatnashgan.

U Dnepr uchun jangda, Bereznegovo-Snigirev, Odessa, Belarus hujum operatsiyalarida qatnashgan. Eshonqul Ismoilov 1943-yil 17-dekabr hamda 1944-yil 3-martdagi janglarda yaralanib, harbiy gospitallarda davolangan. Salomatligini tiklashi bilanoq safdoshlariga shaxsiy namuna ko'rsatib, o'z qismiga qaytgan.

Qahramonimiz 1945-yil yanvar oyining oxirida Polshadagi "Poznan" qal'asini ozod qilish paytida mardonavor harakatlari bilan alohida ajralib turar va quroldoshlariga o'rnak bo'lgan edi. Keyinchalik "Poznan" uchun kechgan qonli janglarda E. Ismoilov yana 20 nafar nemis askarini yo'q qildi.

U hujum guruuhlari tarkibida harakat qilib, dushmanning qarshilik ko'rsatish tugunlarini yo'q qilish uchun og'ir janglar olib bordi va qat'iy shiojati bilan quroldoshlarini ham o'z ortidan ergashtira oldi. Qarshilik bo'linmalaridan biriga hujum qilganda batalyonning oldinga siljishi yaxshi tayyorlangan pozitsiyadan katta kalibrli pulemyot o'qi bilan kechiktirilganda, u pulemyotni yo'q qilish uchun ko'ngilli ravishda binolar orasiga yashirincha kirib boradi. O'lja tomon sekin yaqinlashib, granata bilan dastlab pulemyotni, so'ng zenit qurolini yo'q qildi. Bu esa batalyonga jangovar topshiriqni bajarish va hujumni yakunlash uchun zamin yaratdi.

Bu vaqtga kelib fashistlar qarshi hujumga o'tadi. Gvardiya askari E. Ismoilov o'zi yo'q qilgan o'q otish joyidan pulemyotni yo'lg'a kiritib, u bilan dushman qanotiga yo'l oldi va qulay masofadan o'q uzib, qirqa yaqin dushman askarini yer tishlatadi. Shu tariqa batalyon o'z ko'zlagan maqsadi yo'lida dadil odimlay boshladi. E. Ismoilovning har bir

jangovar topshiriqni puxta bajarishi, dovyurakligi, xavf-xatardan cho'chimasligi bo'linmasi uchun ko'plab muvaffaqiyatlar keltirgan. U 400 ga yaqin dushman askari davolanayotgan harbiy gospitalni qo'lga olgani ham bu fikrlarimizni quvvatlaydi.

Shu tariqa E. Ismoilov jang qilgan batalyon kuchli mudofaa markaziga aylanadi va ularga navbatdagi muhim vazifalardan biri beriladi. Endi ular Lokomotiv parovozlar qurish zavodi majmuasini egallashi kerak edi. Zavod yon-atrofini dushman askarları zenit quroli "o'q yomg'ir" i ostida ushlab turardi. Vaziyatni puxta o'rganib chiqqan E. Ismoilov yana qahramonlarcha harakatlanib, yarim yerto'la binoda o'ziga boshipana topdi va dushmanning "o'q yomg'ir" i ostidan ikki jangchi sherigi bilan dushman berkinib o'q uzayotgan joyga granata uloqtirib, portlatish orqali bino devorini buzishga muvaffaq bo'ldi. Tinimsiz o'q uzayotgan fashist jangchilari shu tariqa yer bilan yakson etildi. Shundan so'ng dushmanning chalg'ib qolganidan foydalaniib, tezlik bilan batalyonni zavod hududiga olib kirdi va dushmanni u yerdan quvib chiqarishga erishdi.

Tarixchi olimlar ushbu harbiy operatsiyaga quyidagicha tavsif bergan: 1944-yil kuziga kelib, Sovet-Germaniya frontining Berlin yo'nalishida qizil armiya qo'shinlari Visla daryosiga yetib bordi va uning g'arbiy qirg'og' idagi uchta yirik ko'priki egallab oldi. Reyxning poytaxtigacha bo'lgan eng qisqa yo'lni himoya qilayotgan nemis guruhiha ("A" armiya guruhi) nisbatan foydali strategik pozitsiyani egallaganidan so'ng Olyi qo'mondonlik shtab-kvartirasi qo'shinlarning dam olish, kuchlarni to'plash va Varshava-Berlin liniyasi bo'ylab zarba berish maqsadida bir oz tanaffus qildi. 1945-yil boshiga kelib Visla va Oder daryolari o'rtasida nemis qo'shinlari mag'lub etish operatsiyasiga tayyorgarlik yakunlandi. Kampanianing asosiy maqsadi 1-Belorussiya fronti (Sovet Ittifoqi marshali G. Jukov) bilan "Poznan"ga va 1-Ukraina fronti (Sovet Ittifoqi marshali I. Konev) bilan Berlin yo'nalishini qoplagan nemis kuchlarni parchalash va yo'q qilish orqali Breslauga zarba berish edi. 1945-yil 12-yanvarda 1-Ukraina fronti qo'shinlari Sandomir ko'prigidan hujumga o'tdilar...

Shuni alohida aytish joizki, qahramonimiz E. Ismoilov 1945-yil 29-yanvarda bo'lib o'tgan jangda nemislarning qarshi hujumini qaytarishda yaralanadi, ammo gospitalga borishdan voz kechib, hujum to'liq tugagunga qadar dashmanga qarata o'q uzgan.

Shundan so'ng Sovet Ittifoqi Olyi Kengashi Prezidiumining 1945-yil 31-maydagi farmoni bilan komandirlarning jangovar topshiriqlarini namunalni va jasorat bilan bajargani uchun qizil armiya askari Eshonqul Ismoilov Lenin ordeni, "Oltin Yulduz" medali hamda Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan.

Urush tugaganidan keyin E. Ismoilovga boshqa askarlar qatori uyiga qaytish uchun ruxsat berildi. U o'z qishlog'iga qaytganidan so'ng Fotima Sharifova bilan oila qurib, ikki o'g'il va ikki qiz farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazdi. Yaxshi insonlarning farzandlari ham yaxshi bo'ladi, deganlaridek, ularning o'g'il-qizlari, nabiralarini ham butun umr xalq xizmatida bo'ldi. E. Ismoilov urushdan keyingi yillarda ham bir lahma tinim bilmasdan xalqqa xizmat qilishda davom etdi, xususan "Qizil kuch" kolxzida brigada boshlig'i, fermer xo'jaligi mudiri, ombor mudiri, 3 yil kolxozi raisi bo'lib ishladi. Keyin 16 yil Ittifoq qishloq kengashining raisi vazifasini bajardi. Uning qahramonligi va jasorati har birimiz, ayniqsa yoshlar uchun o'rnakdir.

Urushdan keyin tanazzulga uchragan iqtisodiyotni tiklash va mustahkamlashga, yosh avlodni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashga katta hissa qo'shang. E. Ismoilov tashkilotchilik qobiliyatiga ega yaxshi rahbar edi. O'ziga yuklatilgan har qanday majburiyatlarga mas'uliyat bilan yondashar, fuqarolik burchini sidqidildan bajarardi. 1985-yilda u I darajali "Vatan urushi" ordeni va bir qator medallar bilan taqdirlangan.


Sovet Ittifoqi Qahramoni, urush va mehnat faxriysi, kamtarin inson Eshonqul Ismoilov 1990-yil 20-iyulda 88 yoshida og'ir kasallik bilan bu dunyoni tark etdi.

2006-yildan boshlab u kishi yashab o'tgan qishloqdagi 37-maktab Eshonqul Ismoilov nomi bilan atalgan va qahramonning ramziy byusti o'rnatalgan.

2022-yilda E. Ismoilovga tegishli bo'lgan urush davridagi barcha ashyolar, esdalik nishonlari, orden va medallar u kishining farzandlari tomonidan poytaxtimizda barpo etilgan "G'alaba bog'i" majmuasidagi "Shon-sharaf" muzeysiga topshirilgan.

**Alisher ESHANKULOV,**  
**O'zbekiston Respublikasi**  
**Prezidenti huzuridagi**  
**Davlat boshqaruvi**  
**akademiyasi Davlat**  
**boshqaruvining siyosiy**  
**asoslari kafedrasini**  
**dotsenti v.b.**

# Axloqiy ong muammosi



Butun dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlar yoshlar tarbiyasiga, ularning ma'naviy-axloqiy ongiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, yoshlarning ma'naviy-axloqiy ong masalasi muammoga aylanib qoldi. Chunki hozirgi vaqtida axloqiy qadriyatlar iyerarxiyasiagi tenglashtirish tamoyili ko'zga yaqqol tashlanmoqda.

Jumladan, shaxs va jamiyat faoliyatida axloqiy qoidalarning buzilishi kuzatilmoxda, ma'naviy-axloqiy ongini yuksaltirish siyosatiga e'tibor bermayotgan davlat siyosatining o'rnni esa internet va ko'p hollarda shubhali axloqiy mahsulotlarni tortiq qilayotgan "ommaviy madaniyat" unsurlari egallashga ulgurdi. Bunday muammolarning oldini olish va bartaraf etishda ma'naviy-axloqiy ongning o'rni beqiyos hisoblanadi.

Insonning dunyoga bo'lgan munosabati uning falsafiy tafakkur, ong va qarashlarida o'z ifodasini topadi. Ma'naviy-axloqiy ong rivojining tarixida ma'no-mazmuni turlichalar bo'lgan qarashlar esa insonning o'lga

tarbiyasiga bog'liq. Buni ma'naviy pok va ma'naviy noplak odamlarning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatib kelayotganida ko'rshimiz mumkin.

Yoshlarda ma'naviy-axloqiy ongi, birinchidan, uning dunyoqarashi bilan bog'liq bo'lgani uchun ham jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy hayotida o'ziga xos o'ringa ega; ikkinchidan, ijtimoiy hayot sohalari bilan bog'liq; uchinchidan, metodologik nuqtayi nazardan jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy hayotini bilish, o'rganish orqali jamiyatga ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy-axloqiy ong bevosita inson ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan fenomen bo'lib, u bir necha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Uning ko'rinishlaridan biri – dunyoqarash.

Dunyoqarash – dunyoga va insonning undagi o'rniga, odamlarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy yondashuvlar tizimi, bu qarashlarga asoslangan insonlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillaridir. U insonning yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, g'oyaviy nuqtayi nazari, o'zi yashayotgan jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Demak, yoshlarning dunyoqarashi sanab o'tilgan yo'nalishlar bilan boyitib borilsa, u o'zi va dunyoniz zaruri ravishda anglay boshlaydi hamda muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, sinf, millat va jamiyat miqyosidagi ijtimoiy ong bilan uyg'unlashadi. Chunki dastlab individ dunyoni hissiy

sezadi (*dunyoni his qilish*). Bunda u voqelikni bevosita hissiy in'ikos etish natijasida anglaydi. Keyin voqelik haqida to'plagan bilimlari asosida individning dunyoqarashi paydo bo'ladi.

Ma'naviy-axloqiy ongning namoyon bo'lish shakllaridan biri – xulq. Yoshlarning ilmiy salohiyati, iqtidori, izlanishlari, muvaffaqiyatlari, kashfiyotlari har qaysi odamni quvontirishi tabiy. Lekin qator muvaffaqiyatlarimizdan havolanmay, eng muhim nuqta – yoshlarning ma'naviy kamoloti, bilimi, xulq-atvornini ham unutmaslik zarur. Chunki xulq-atvori tabalaning ma'naviy qiyofasini ko'rsatib turuvchi asosiy holatdir. Yana shuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy mavjudot hisoblangan insonning fe'l-atvori, dunyoqarashi, odob-axloqi, ma'naviy qiyofasi ijtimoiy muhitga bog'liq. Inson ijtimoiy muhit hosili sifatida shakllanib, kamolotga erisha boradi. Demak, bola ta'lim olayotgan muassasa, uning atrofidagi muhitda ta'sir kuchi qaysi tomonga ko'proq yo'naltirilsa, uning xulqi ham o'sha tomonga og'a boshlaydi.

Ma'naviy-axloqiy ongning namoyon bo'lish ko'rinishlaridan yana biri madaniyat hisoblanadi. U ijtimoiy ko'rinishga ega bo'lib, insonni boshqa barcha tabiiy-biologik dunyodan ajratib turadi. Madaniyat tushunchasini ayrim olimlar arabcha "madina" va "iyat" so'zlarining qo'shilishidan kelib chiqqan va u "shaharga oid" ma'nosini anglatadi, deb hisoblaydi. Yevropalik olimlar madaniyat tushunchasi "kultura" so'zidan kelib chiqqan, u "parvarishlash" ma'nosini bildiradi, degan fikrni ilgari suradi. Madaniyat o'zbek tilida "tarbiya ko'riganlik", "bilimlilik", "sifatlilik" ma'nolarida ishlataligan. Madaniyat inson va jamiyat ijodiy faoliyatining barcha ko'rinishlari, uning oqibatida yaratilgan jami moddiy va ma'naviy qadriyatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Umumiy ko'rinishda madaniyat tushunchasi deganda odamlar hayoti va faoliyatini tashkil qilish shakllari va turlarida hamda ular tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda o'z ifodasini topgan jamiyat va inson taraqqiyotining muayyan tarixiy savyasi tushuniladi.

Endi mana shu ma'naviy-axloqiy ongning ko'rinishlarini yoshlar ongida shakllantirish, yon-atrofida bo'layotgan voqe-hodisalarga o'z munosabatini bildira olish, yaxshini yomordan, oqni qoradan ajrata olish masalasi hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Bugungi kunda ma'naviy-axloqiy ong va tafakkurda yangicha yondashuv, prinsip hamda g'oyalar shakllandi.

Jumladan: 1) ma'naviy ong falsafaning tarkibiy qismi ekani e'tirof etilmoqda; 2) jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotiga formatsion qarash o'rnda sivilizatsion yondashuv shakllanmoqda; 3) ma'naviy-axloqiy ongda din va diniy qadriyatlarga, dinning jamiyat ijtimoiy, ma'naviy taraqqiyotidagi o'rniga alohida e'tibor berila boshlandi. Bular jamiyatning yangicha ma'naviy-axloqiy ong negizida rivojlanishiga asos yaratdi. Shuningdek, Vatan va millat oldida mas'uliyatni his qiladigan, muammolarni tahlil etish va ularning yechimlarini topadigan, dolzarb masalalar yuzasidan to'g'ri xulosa chiqaradigan kelajak yoshlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yoshlar tarbiysi, ma'naviy-axloqiy ongi masalasi bo'yicha davlatimiz tomonidan bir qator hujjatlar qabul qilindi va amaliyotga joriy etildi. 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini

tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror ma'naviy tarbiya masalasiga qaratildi. Unda tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda, avvalo, onaning homiladorlik davrini to'g'ri tashkil etish, go'daklar va bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilash; aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan tanishtirib borish; ommaviy axborot vositalari, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalotlatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lam dunyoqarashni shakllantirish masalalari belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oly ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarish vazifalari belgilangan. Shayx Sa'diy o'zining "Guliston" asarida axloqiy tarbiya masalasini "Kimda-kim, yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bo'lgach, baxtli bo'la olmaydi. Ho'l novdani istagancha bukish mumkin, quruq novdani faqat olovda tolab to'g'rilash mumkin", deya ta'riflab o'tgan.

Hayotning mazmunli bo'lishida beriladigan ta'lim-tarbiyaning dastlabki poydevori oilada boshlanadi. Oilada ota-onha tomonidan farzandining tarbiyasi, uning odob-axloqi va ma'naviy yuksakligi uchun sharoitlar yaratiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim maktabları, oly ta'lim muassasalari esa odobi, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatlari, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lam, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. Faqatgina bu maqsadga yetishish uchun uzluksizlikni ta'minlay olish zarur.

Fuqarolik jamiyatni ijtimoiy hayotning davlat ta'siri va aralashuvidan, ma'muriy tazyiqlardan xoli bo'lgan hamda insonlarning erkin munosabatlaridan tashkil topuvchi, yoshlarning ijodiy salohiyati va iste'dodining bevosita ro'yobga chiqarilishiga keng imkoniyat yaratilgan ongli individlar jamiyatidir. Bunday jamiyatni shakllantirishda yoshlar eng katta shijoatli kuch hisoblanadi. Bu kuch esa yoshlarning ma'naviy-axloqiy ongining shakllanishi bilan bevosita bog'liq.

Yoshlarni "Chuqur bilim, insoniy fazilat va huquqiy madaniyat bilan yuksak axloqiy ma'rifat sari" konseptual g'oyasi asosida tarbiyalab, ularning yuksak ma'naviyatlari, barkamol shaxslar bo'lib yetishishlari uchun barcha imkoniyatlardan foydalananishlari shart. Shundagina Yangi O'zbekistonda yangicha fikrlaydigan, Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar mujassamlashgan kelajak avlod shakllanadi.

**Kimyoxon KAMOLOVA,**  
**Nizomiy nomidagi TDPU**  
**o'qituvchisi, falsafa fanlari**  
**bo'yicha falsafa doktori (PhD)**



– Gazetaning yangi soni keldi, – xursand kirib keldi harbiy qism komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinnbosari. O'tirganlar birin-ketin sahifalarini varaqlay boshladi. Ularni jim kuzataman. Ko'pi bilan 2-3 daqiqada 24-sahifaga yetib kelishadi. Aksariyatini sarlavhalar, maqolalarning umumiyo mazmuni va mualliflar qiziqtiradi.

Xayolan tahririyatga qaytaman. Ish juda ham qizg'in.

– Hozir yilning issiq kunlari, shu haqda foydali ma'lumotlar berish kerak.

– Yozgi ta'tilda o'quvchilarning bo'sh vaqtalarini mazmunli o'kazishga xizmat qiladigan materiallarni ko'proq chop etsak.

– Tarixiy mavzular esdan chiqmasin.

– Jadidlar faoliyatidan harbiy xizmatchilar, albatta, xabardor bo'lishi lozim.

– Jangovar va o'quv mashg'ulotlari, seminar va anjumanlarni oldingi sahifalarga joylashtirgan ma'qul.

– Chet mualliflardan, yozuvchilardan ko'proq jaib qilish foydadan xoli bo'lmaydi...

“Xizmat taassurotlarim haqida kundaliklarimni to'plab, maqola tayyorlasam bo'ladimi? Gazeta tarixi haqida ham gapirib bera olasizmi?”

– askar yigitlardan birining savoli xayollarimni to'zg'itib yuboradi. Uning e'tiboridan xursand bo'lib, batafsil ma'lumot berishga kirishaman:

– Mudofaa vazirligining markaziy matbuot nashri “Vatanparvar” gazetasi O'zbekiston Respublikasi mudofaa ishlari bo'yicha vaziri – Milliy gvardiya qo'mondonining 1992-yil 19-iyundagi 81-sonli buyrug'iga binoan tashkil etilgan.

1992-yil 24-iyun kuni “Vatanparvar”ning ilk soni chop etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan islohotlarni, davlatning mudofaa va harbiy qurilish sohasidagi siyosatini keng targ'ib qilish, harbiy xizmatchilar va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidha ulug' ajoddlarga munosib vorislar etib tarbiyalash, ularda Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini shakkantirish, harbiy xizmat va kasb nufuzini oshirish maqsadlarida faoliyat yuritayotgan gazeta 2005-yil 29-aprel 48-sonidan to'liq rangli sahifalarda, haftalik gazeta sifatida chop etila boshladi.

2015-yili tahririyat tomonidan “O'zbekiston armiyasi” jurnalining birinchi soni chop etildi...

Bu kabi savol-javoblarga ko'nikib qolganmiz. Xizmat safarları bir-biriga ulanib ketadi. Gazeta sahifalarini yangi-yangi maqolalar bezayveradi. Sahifalarga sig'magan satrlar kitoblarga ko'chadi. 2012-2023-yillarda “Vatanparvar” kutubxonasi seriyasida “Buyuk ajoddalar” meros muqaddas Vatan”, “Oila - hayot gultoji”, “Axborot-psixologik xurujlar va tahidlar”, “Vatan omon bo'lsin”, “Qalqon qo'shig'i”, “Mangu jasorat”, “O'zbekiston armiyasi obyektiv qarshisida”, “Armiya bilan hamqadam, hamfikr, hamnafas” nomli kitoblar jami 14 500 nusxada chop etilib, Mudofaa vazirligi qo'shinlariga tarqatildi.

Bundan tashqari, Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti xodimlari – Qurolli Kuchlar xizmatchilari Zulfiya Yunusovaning “Muhabbatning azobi”, “Qaltis xato”, “Baxt tilsimi”, “Bobolarim kutgan onlar”, Inobat Ibragimovaning “Chinni”, “Gunash sharqisi”, Begali Eshonqulovning “Men axir senman”, “Voh”, mayor Aziz Norqulovning “Posangi”, “Jar yoqasidagi masxaraboz”, katta leytenant Islomjon Qo'chqorovning “Seni izlayman”, katta leytenant Dilshod Ro'ziqulovning “Dehqoni so'z” kabi kitoblari chop etildi. Shu yillar davomida mayor Aziz Norqulov, katta leytenant Islomjon Qo'chqorov, Qurolli Kuchlar xizmatchilari Zulfiya Yunusova, Inobat Ibragimova, Begali Eshonqulov O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi bo'ldi.

Tunlarni tonglarga, yo'llarni yo'llarga ulagan ijodiy safarlar o'zining samarasini beradi, albatta. Bir qator tahririyat xodimlari davlat mukofotlari bilan taqdirlanib, respublika miqyosida e'tirof etilgan. O'tgan yillarda Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti “Vatanparvar” birlashgan tahririyatinining 10 nafar xodimi – “Jasorat”, “Shuhrat” medallari va “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan journalist” faxriy unvoniga sazovor bo'ldi. Shuningdek, 5 nafar xodimi “Oltin qalam” milliy mukofoti uchun xalqaro tanlovi g'olib va sovrindorlari safidan o'rin oldi.

Respublika miqyosidagi tanlovlari g'oliblari ham tahririyat muxbirlari orasida talaygina. 2023-yili tahririyat ijodiy xodimlari bir qator yutuqlarga



erishdi. Jumladan, bo'lim boshlig'i katta leytenant Islomjon Qo'chqorov "Kelajak bunyodkori", Qurolli Kuchlar xizmatchisi Begali Eshonqulov "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Bo'lim boshlig'i mayor Aziz Norqulov respublika miqyosida o'tkazilgan "Eng ulug'", eng aziz", bo'lim boshlig'i katta leytenant Islomjon Qo'chqorov "Posboniman muqaddas yurtning" tanlovlardida faxrli o'rnlarni egalladi.

Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti "Vatanparvar" birlashgan tahririysi tomonidan ham harbiy xizmatchilar, ularning farzandlari, OAV xodimlari o'rtaida ko'plab tanlovlar o'tkazib kelinmoqda. "Vatanga xizmat - muqaddas burch", "Milliy armiyam - mustaqillik qalqoni", "Mustaqillik mening taqdirimda", "Yuksak huquqiy madaniyat", "Mening dadam - Vatan himoyachisi", "Ajodolar merosi", "Posboniman muqaddas yurtning", "Vatan himoyachisi - menin tasavvurimda", "Kitobxon posbon", "Mening armiyam - menin faxrim", "Jamoatchi muxbir", "Temur tuzuklari bilimdoni" kabi 15 dan ziyod tanlov tashkil etildi.

Quvonarli yana bir jihat, bir guruh safdoshlarimiz armiya hayotiga ilmiy yondashib, oliy ta'lif muassasalarini bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining qo'shinlar bilan ishslash bo'limi maxsus muxbiri katta leytenant Dilshod Ro'ziqurov 2023-yilda "O'zbekistonda harbiy jurnalistikada axborot integratsiyasining nazariy va amaliy xususiyatlari" mavzusida doktorlik (PhD) dissertatsiyasini

yoqlab, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi. O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti mustaqil izlanuvchisi, "Vatanparvar" birlashgan tahririysi bo'lim boshlig'i podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova "O'zbekistonda harbiy PR-kommunikatsiyalar: mazmuni, yo'nalishlari, samaradorligi masalalari", kapitan Bobur Elmurodov "Jasorat" fenomenini shakkantirishda o'zbek epik dostonlari: strukturaviy-funksional yondashuv" mavzusida (PhD) dissertatsiyasini tayyorlamoqda.

Aytgancha, Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti jamoasi O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti bilan talabalarni amaliyotga tayyorlash borasida ham mutazam hamkorlikni yo'lga qo'yan. Universitetning Harbiy va sport jurnalistikasi kafedrasi ko'chma filiali ochilgan.

Faoliyatimizning aksariyat qismi xizmat safarları bilan o'tadi. Ayrim yangiliklardan gohida o'zimiz ham sal kechik xabardor bo'lamiz.

Bu tanish hodisa esa ko'p takrorlanadi:

- Gazetaning yangi soni keldi, - xursand kirib keladi harbiy qism komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlari bo'yicha o'rnbosari.

O'tirganlar birin-ketin sahifalarni varaqlay boshlaydi. Ularni jim kuzataman. Boshlarini ko'tarmay mutolaaga berilib ketganlarini ko'rsam, sevinib, ich-ichimdan faxrlanib o'tiraman. Tandirdan uzilgan nondek gazetaning yangi soni ularning qo'liga yetib kelgunicha bo'lgan mashaqqatli yo'lni ko'z oldimga keltiraman.

Yana bir quvonchli voqeja. Yoshlar kuni munosabati bilan Prezidentimizning qaroriga ko'ra, yurtimizning bir guruh faol, fidoyi va mard o'g'lonlari "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Ular orasida Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining bo'lim maxsus muxbiri, yosh olim katta leytenant Dilshod Ro'ziqurovning ham borligi bayramga munosib tuhfa bo'ldi.

Gazeta tashkil etilganining 32 yillik tantanalarini yorug' yuz bilan nishonlayotgan hamkasblarimga ko'p tashakkur aytaman! Ana shunday mas'uliyatli va muqaddas vazifaning bir ishtirokchisi ekanimdan faxrlanaman!

**Mayor Aziz NORQULOV,  
"Vatanparvar"**

## Harbiy matbuotchilar

Sizlar - harbiy matbuotchilar, Vatanparvar targ'ibotchilar. Chekinmoq yo'q, yurasiz olg'a, Goh poligon, gohida tog'da.

Tun-u tongning farqi yo'q sizga, Burchingizni oqlashdan o'zga. Botirlarga doim yo'ldoshisz, Harbiyga xos metin bardoshisz.

Nur ustasi, muxbir, tasvirchi, Har birining zahmatli burchi. Vazifangiz zalvari yuksak, Mahorat-u matonat kerak.

Gazet, jurnal, oynayi jahon Maqsadingiz aylaydi bayon. Dunyo tinglar aytar so'zingiz, Haq yo'lida qolar izingiz.

Ne xavf kelsa aziz tuproqqa, Harbiy kuchlar turar oyoqqa. Mardlar bilan turib bir safda, Har sinovda siz kamarbasta.

Virus, ofat, ne xavf-u xatar, Irodangiz bukolmas azal. Kerak chog'da metin qoyasiz, Olmos yanglig' chin himoyasiz.

Harbiylarga bo'lib yelkadosh, Tinchlik deya ko'tarasiz bosh. Mardlik ilmin etasiz talqin, Har so'zingiz zalvarli, chaqin.

Goho ko'kda olasiz tasvir, Goho janggoh bo'ladi manzil. Goho sahro, goho cho'ldasiz, Doim bedor, doim yo'ldasiz.

Qurolingiz - qalam, oq qog'oz, Tasvir, targ'ib, kasbiga ixlos. Musahhihlar to'kar ko'z nurin, Suxandonlar so'zining durin.

Vatan uchun shaysiz, bedorsiz, Ezgulikka umri nisorsiz. Targ'ib etmoq burchingiz axir, Fidolarsiz, kasbida mohir.

Sizlar - harbiy matbuotchilar, Vatanparvar targ'ibotchilar. Jasoratdan so'zlaysiz biyron, Ahli zamin yashasin omon!

**Zulfiya YUNUSOVA**



# ВОЕННЫМИ НЕ РОЖДАЮТСЯ, ИМИ СТАНОВЯТСЯ

Всегда трудно говорить о человеке в прошедшем времени. Особенно, когда долгие годы прослужил рядом с ним.

**Полковник в отставке Ирисмухаммад Абдукаrimov находился в числе создателей первой в республике военной газеты «Ватанпарвар» – Центрального печатного органа Министерства обороны Республики Узбекистан. Автору выпала честь двадцать лет служить бок о бок с этим офицером, оставившим большой след в истории СМИ независимого Узбекистана.**

Первые годы становления армии суверенного Узбекистана выдались самыми трудными не только в плане формирования воинских частей и подразделений, но и в создании военных СМИ. Газета «Ватанпарвар» возникла на базе ежедневной газеты «Фрунзеевец» бывшего Туркестанского военного округа.

Ирисмухаммад Абдукаrimov был направлен руководить данным изданием из центрального аппарата Народно-демократической партии Узбекистана (НДПУ), где он в течение 1991-1993 годов возглавлял отдел межпартийных связей и парламентской работы. Ему пришлось в 36 лет надеть военную форму и в звании капитана возглавить сложный участок.

Чем был вызван выбор руководства республики? Как рассказывал чуть позже сам И. Абдукаrimov, могли учесть его деятельность и вклад в качестве первого секретаря Ахангаранского районного комитета комсомола в 80-х годах в предотвращение последствий межэтнического конфликта с участием турок-месхетинцев.

Это сейчас газета «Ватанпарвар» МО РУ печатается на современном оборудовании в издательстве «Узбекистан», выходит в цвете на 24-страницах. А тогда четыре полосы формата А2 выходили трижды в неделю в черно-белом варианте, печатались в собственной типографии издательства «Ватанпарвар». Станки, как печатный, так и строкоотливные, были устаревшими, морально и физически изношенными.

Не только Ирисмухаммад Абдукаrimov, но и многие призванные из запаса офицеры, в том числе и автор этих строк, в процессе службы осваивали секреты офицерской грамоты. Да, мы порой не знали простых уставных требований, недостаточно владели мастерством описания действий в ходе тактических учений или боевых стрельб, постигали науку на ходу.

– Не стесняйтесь спрашивать у офицеров в войсках, – советовал нам перед выездами в командировки главный редактор. – Поймите, никто не может родиться военным, ими становятся. Учиться никогда не поздно, ведь я тоже учусь на четвертом десятке лет!

Действительно, усидчивости и целеустремленности нашего командира многие могли позавидовать. Прибывал в редакцию одним из первых, а уезжал одним из последних. Требовал особой внимательности к читке авторских материалов, строгой проверки фактов и комментариев. Он принимал близко к сердцу не только наши успехи, но и упущения.

Коллективу импонировало стремление руководителя вникать в заботы подчиненных, решать бытовые вопросы. Например, он обратился с письмом для решения вопроса о размещении фотокорреспондента Виктора Багаева в военное общежитие. И человек ответил ростом трудолюбия, яркими фотографиями из войск. На день рождения мамы одного из офицеров он попросил поехать туда артисты Центрального ансамбля песни и танца Вооруженных Сил.

– Понимаете, мама для каждого из нас – самый дорогой человек на свете, – говорил он по телефону руководителю

ансамбля. – Мне хочется, чтобы коллега ощутил поддержку товарищей по перу, тогда он будет еще лучше служить Родине.

Бот и к автору этих строк он лично приехал домой в день смерти матери. Сообщил о том, что организовал машину для поездки на кладбище, спросил, какая еще нужна помощь. Было очень приятно ощутить плечо товарищей в такой трудный момент жизни...

Ирисмухаммад ака не был журналистом по специальности, окончил в 1980 году Московский педагогический институт, а трудовой путь начал простым рабочим комбината «Стройплатформа» в Ахангаране. Но чувствовал слово, понимал идеологию государства, ведь в военной прессе тоже проходили политические материалы. В чисто военных вопросах доверял правки кадровым офицерам.

Когда в Ферганской долине случился сход селевых потоков и военные помогали населению с ликвидацией последствий природной стихии, Абдукаrimov лично организовал регулярные репортажи наших корреспондентов из данного региона. Причем он и сам не считал себя кабинетным работником.

– А что они думали увидеть? – улыбался главный редактор. – Думали, что узбеки умеют только собирать хлопок и выращивать арбузы? Мы же потомки великого полководца Амира Темура! И воевать умеем не хуже их, а может даже и лучше. Мы мирные люди, но в генах военная жилка имеется.

Хотя наша газета была изданием военного ведомства, у нас в штате был отдел массовой работы и спорта. Массовая работа заключалась в том, чтобы создавать сети внештатных военкоров в округах и гарнизонах, чтобы через них оперативно освещать жизнь и служебную деятельность войск. А спорт является неотъемлемой частью боевой подготовки личного состава. Следует отметить, что мы не просто писали о спорте, но и сами участвовали в различных соревнованиях, в том числе футбо

турнирах по болу между дакциями



центральных газет республики, даже занимали призовые места. И главный редактор полковник И.Абдукаrimov всегда был рядом, играл в основном составе. Ирисмухаммад ака очень любил большой теннис, участвовал на международном турнире по теннису на «Кубок Президента», в баталиях спортивных журналистов, на турнире «Хавас» с заместителем командующего войсками ВПВО и ВВС полковником Анваром Абдуллаевым занял призовое место.

Руководство Министерства обороны всегда достойно оценивало нелегкий труд военных журналистов, целая группа офицеров была удостоена высоких государственных наград, а полковник И. Абдукаrimov – медали «Жасорат».

С годами перенесенные треволнения сказались на здоровье главного редактора, он перенес инфаркт и был после лечения уволен в отставку по состоянию здоровья. Но воля к жизни оказалась сильней болезни сердца. После операции в Индии Ирисмухаммад Касымович смог восстановить здоровье и вернулся на работу. Трудился в Агентстве информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента РУ начальником отдела мониторинга, затем возглавлял управление координации деятельности СМИ и издательств, работал заведующим отделом духовно-просветительской работы и спорта Федерации профсоюзов Узбекистана, начальником отдела газеты «Ишонч-Доверие», директором музея Федерации профсоюзов Узбекистана.

Ирисмухаммад Абдукаrimov и ушел из жизни прямо на рабочем месте, готовясь к очередной выставке в музее. Он и не мечтал о спокойной старости, был постоянно в эпицентре событий, вел активную жизнь. Таким и останется в памяти боевых товарищ.

**Аблай КАМАЛОВ,  
подполковник в отставке,  
ветеран Вооруженных Сил**



# HAR ISMDA BIR HIKMAT MUJASSAM!

## UNUTILMAS SABOQ

O'shanda 1974-yilning kuzi, aniqrog'i, endigina maktabni bitirib, tuman gazetasida ishlayotgan kezlarim edi. Bir safar ilg'or mexanizator haqida maqola yozish yuzasidan topshiriq oldim. Shunga ko'ra, yig'im-terim avjiga chiqqan dalaga bordim, mexanizatorni ish ustida uchratib suhbatlashdim. Hatto traktorchilikdan xabarim borligi bois unga qo'shilib mashinada paxta terdim. Keyin shu asosda lavha yozdim. U gazetaning shanba sonida chop etildi.

Albatta, bu men - boshlovchi jurnalist uchun katta yutuq edi. Ammo quvonchim uzoqqa cho'zilmadi. Dushanba kuni ertalab xonada ishlab o'tirgandim, eshik shaxt bilan ochildiyu, ostonada qahramonim ko'rindi. U men bilan nomigagina so'rashdi-da, qo'qqisdan muddaoga o'tdi.

- Hov, uka! - dedi ko'zlarimga qattiq tikilarkan, zardali ohangda. - Men otim Itolmas ekanini aytgandim, sen nega Yetolmas deb yozding? Xo'sh, nimadan quruq qolar ekanman?..

Kutilmagan savoldan avvaliga esankirab qoldim, so'ngra oldimda turgan gazetaga shosha-pisha ko'z yogurtirdim. Qarasam, ismi rostdanam Yetolmas yozilibdi. Uni kim, qachon o'zgartirganini bilolmay, tasodifan xonaga kirgan bo'lim mudiriga iltijoli boqdidi.

- Ha, tinchlikmi? - bo'lim mudiri mexanizatorga yuzlandi. Uning dardini eshitgach, masalaga oydinlik kiritdi. - Ayb bu yigitda emas, - dedi menga ko'z qirini tashlab. - Aslida, sizning ismingiz eskicha va nojoizroq ekan. Shuning uchun gazetaga qo'l qo'yishdan oldin muharrir bilan maslahatlashib, sal o'zgartirdik.

- Nega?! - mexanizator battar jahl otiga mindi. - Axir eskichami-yangichami, yoqimlimi-yoqimsizmi, bu rahmatli ota-onam qo'ygan ism-ku! Ular mendan oldingi besh farzandi turmagani uchun shunday qarorga kelishgan. Bu bolamiz yashab qolsin, uni Xudo o'z panohida va yomon ko'zlardan asrasin, loaqal it ham daxl etolmasin, degan ma'noda shunday yo'l tutgan. Sizlarga birovning otini buzib yozishga kim huquq bergen? - u birzum to'xtab nafas rostagach, piching aralash so'zida davom etdi: - Unda, ana, bir hamqishlog'imning ismi forskada Zarima, o'zbekchasi - "past, tuban, yomon", ehtimol, uniyam o'zgartirib berarsizlar?..

Xullas, Itolmas aka uzoq tortishdi. Oxiri bizni tavbamizga tayantirib, uzr so'rattirdi.

Bu voqeа men uchun bir umrlik katta saboq bo'ldi. Shu-shu mudom odamlar ismini to'g'ri va to'liq yozishga, mazmuniga e'tibor berishga odatlandim. Keyinchalik respublika miqyosidagi nufuzli gazetalarda ishlagan chog'larim ayni mavzuda birmuncha chiqishlar qildim. Eng muhimmi, ismlarga qiziqqanim sayin barchasi o'ziga xos teran ma'no va "tarjimai hol"ga egaligini chuqurroq anglay boshladim.

## ISMLAR TARIXIGA BIR NAZAR

Odamga ot qo'yish dastlab qachon va qayerda paydo bo'lganini aniq aytish qiyin. Ammo bir narsa tayin: ismlar chaqaloqqa ota-onasi, yaqin qarindoshlari, tabarruk keksalar tomonidan beriladigan, uni oilada, avlodlar o'rtasida va turli davralarda boshqalardan farqlash imkonini yaratadigan omil bo'lib, muayyan sabablar negizida shakllangan.

Zahmatkash olim E. Begmatovning uqtirishicha, barchasi estetik va etik tamoyillar, insoniy orzu-istiklar, tasavvur va dunyoqarashlar, milliy qadriyatlarga uyqashib ketgan. Ularga, ayniqsa dinlar kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Masalan, yakkaxudolikka asoslangan xristianlik vujudga kelgach, unga oid muqaddas kitoblar va risolalar majmuasi - Bibliyada tilga olingan payg'ambarlar nomlari talay xalqlarda ommalashgan. Markaziy Osiyoga xos ko'hna ismlar esa debochasiga ko'proq mardlik va jasurlikni bildiruvchi ramziy tushunchalar orqali ifodalangan. Islam dini kirib kelgach, musulmoncha otlar keng tarqalgan. Aksariyati Allohnning go'zal ismlaridan hosil qilingan yoki payg'ambarimiz nomlari hamda ilohiy e'tiqodlarga daxldor arabcha kalomlardan kelib chiqqan.

Asrlar osha ism qo'yishning turli rasm-rusum va udumlari qaror topgan. Ajodolamiz har bir odam o'z nomiga o'xshaydi, bolaning sog'lig'i, kelgusi hayoti va baxti uning ruhiyatini ifodalovchi, xulq-atvori va taqdiriga ta'sir ko'rsatuvchi ismiga aloqador bo'ladi deb bilgan. Nasllari davomchilariga ularni g'ururlantiradigan, bamisolgi husnde



yaxshi otlar tanlab, to'liq va chiroyli talafuz qilishgan.

O'zgalar ismini chala-yarim aytishni yoki dilga og'ir botuvchi laqablar to'qishni odobsizlik hisoblagan. Zero hadisda ham "Kimki birovni o'z nomi o'rniqa laqab bilan chaqirsa, uni farishalar la'natlaydilar", deyilgan.

Shubhasiz, ismlardan ayrimlari holat, vaziyat, tabiat hodisalar, chaqaloq tug'ilgan vaqt, kun, fasl va bayram-tantanalarga qiyoslangan. Ba'zan oilaning to'ng'ich farzandi Muqaddam, ikkinchisi Soniya, to'rtinchisi Robiya yoki Chori, beshinchisi Panji deb atalgan. Otasi keksayanida tug'ilganlarga Oltmisboy, Yetmisboy, Saksonboy, To'qsonboy, ota yoki onasi vafot etgan go'dakka Yodgor, har ikkisidan ayrilganiga Yetim ismi qo'yilgan.

Haftaning musulmon olamida muborak sanalmish oltinchi kunida dunyoga kelganlarga Juma, Jumaqul (*Allohnning shu kuni tug'ilgan bandasi*), Jumanazar (*juma tuhfasi*), Jumagul (*guldek suluv qiz*), Odina (*xosiyatl kunda tavallud topgan bola*), omad yor va to'y-tomoshali paytda, bozor kuni, erta yoki avji ko'klam hamda yil boshida tug'ilganlarga Mavlud(a), Muqaddas, yaxshi fazilatlar va baxt-shodiyonalarni egasiga aylansin degan niyatda "ali", "xon", "jon", "bek", "boy", "oy", "qul", "gul" qo'shimchali Xosiyat, Xurram, Xursand, To'ychi, Shodiyor, Shodmon, Bozor, Navbahor, Bahor, Navro'z ismlari berilgan. Nurafshon kechada engasi yangragan qizaloqlarga iqboli porloq bo'lishini istagan holda Oydin, oqshomgi savsyan yoki nilufar gulidek barno, tun go'zali va yog'dusi mazmunida Layli otlari tanlangan.

Hijriy yil hisobidagi oylar nomi ham ko'pincha ism vazifasini o'taydi, yuqoridagi kabi qo'shimchalar esa ularning mazmunini kuchaytiradi. Masalan, Qurbonali, Safarali va Hayitalining zamirida yangi mehmon buyuk kuch-qudrat, yetuk aql-zakovat sohibi bo'lib kamol topsin, degan ezgu tilak mujassamlashadi. Qurbanazar unga Yaratganning nazari tushganini, Hayitmurod farahbaxsh onlarda farzand ko'rish orzusi ushalganini, Hayitgul va Safargul chiroyli-zebo qizni bildiradi. Navbahor ko'klam boshida bizga surriyot nasib etdi, Bahor bola fasllar kelinchagidek go'zal-barno, fayzli-tarovatli bo'lsin degan ma'noni anglatadi.

Ko'pchilikka ayon irimlarga ko'ra, oilada qizlar ko'payaversa, endi bas,

yetar, navbatdagisi o'g'il bo'lsin, degan umidda Basanda, O'g'iloy, O'rilshod, Kifoyat, Ziyoda, bordi-yu, bolalar o'lik tug'ilaversa yoki hayal o'tmay nobud bo'laversa, keyingisi yashab qolishi, umri uzoq bo'lishi ilinjida Yashar, Turdi, Turg'un, Tursun, O'lmas, To'xtasin, Qo'ysin, Omon, Eson o'zakli ismlar loyiq ko'rilgan. Uzoq orziqib kutilgan, iltijo va nazr-niyoziyor evaziga kutib olingen kichkintoylarga Xudoyerdi, Egamberdi, Olloberdi, Berdimurod, Orzumurod, Tilov, Murod, Otaniyoz, Ismoil, Manzura, Marg'uba, Matlub(a), Maqsud(a), Nazir(a), Umid(a), Umidulloh, Ruqiya, Xumor, Munojot, Iroda, Muyassar, Shavqiya, Intizor ismlari ma'qul deb topilgan. Oddiy xoli bor farzand otiga shu so'zdan, agar xol qizil bo'lsa, "nor"dan so'ng "bek", "boy", "oy", "dor", "mirza", "murod", "muhammad", "mo'min", "toji", "beka", "bibi" so'zleri qo'shiladi yoki Tojimurod, Tojixon, Xolida, Bibixol, Ro'zixol, Norqobil, Norxol, Anor(a), Gulnor otlari yasaladi. Badanida biron belgisi, juft yoki ortiqcha a'zosi mavjud chaqaloqqa Nishon, Qo'shoq, Ortiq, Qo'chqor ismlari beriladi. Ayni chog'da, Nishon otadan belgi, Ortiq tug'ilgan bolar yetarli, Qo'chqor farzandimiz shu jonivordek kuchli bo'lsin ma'nolarini ham beradi.

Yana bir qiziq holat: muqaddam uyda tug'ilgan chaqaloqlardan ayrimlarining kindigi mehnat yoki jang qurollari yordamida kesilgan. Shunga binoan, ular Bolta, Tesha, O'roq, Qilich ismlarini olishgan. Qolaversa, bola kelgusida xuddi shu asboblardek o'tkirkeskir yoki turli-tuman noyob metallar va qattiq jismlardek mustahkam irodali, qadr-qimmati va mavqeyi baland bo'lsin degan umidda ularga Temir, Po'lat, Toshmurod, Toshpo'lat, Toshqul, Tilla, Oltin, Olmos, Yoqut, La'l, Suhrob, Kumush, Dinora ismlarini ham ravob ko'rishgan. Qog'onoq, ya'ni homila pufagi yorilmay tug'ilganini Parda, tishi borini Bo'ri, kindigiga o'ralib tushgan jingalaksoch mittivoyni O'rol, sochi o'ralib tug'ilgan chiroyli "holva"ni Zulfiya deyishgan.

Ismlarga taalluqli bunaqa ajoyib-g'aroyib dalillarni istagancha keltirish mumkin.

# Turk – chig'anoq ichidagi dur

*Lev Gumelyovning “Qadimgi turklar”  
asaridan ba’zi hikoyalari*

Turkiy xalqlarning kelib chiqish tarixi, davlat qurilishi, harbiy qo'shini, madaniyati, siyosiy-ijtimoiy hayoti, savdosi, diplomatiyasi kabi masalalarga bag'ishlangan bu asar millatimizning harbiy tarixiga qiziqqan o'quvchilar, ayniqsa harbiy xizmatchilarga ajdodlarimizning qurol-yarog'lari, aslahalari, jang taktikasi, harbiy ta'minoti, qo'shin tuzilishi, jangovalruhiyatidan xabar beradi.

## “ULARDAN AMIRLAR YETISHIB CHIQADI”

“Turklar taqdiridagi shuhrat va omadning sababi nimada ekanini kim aytib bera oladi, deb yozadi Faxriddin. Javobi: ma'lumki, har bir qavm va kishilar toifasi, o'z xalqi orasida ekan, o'z qarindoshlari qurshovida, o'z shahrida ekan, o'ziga yarasha obro'-e'tiborga ega bo'ladi, biroq ular sayohatga chiqib, begona yurt, ellarga borib qolsa, undan jirkanadilar yoki mutlaqo e'tibor bermaydilar. Lekin turklarda buning teskarisi: ular hali o'z yurtida va qarindoshlari orasida ekan, boshqa turli qabilalardan biri bo'lib qoladi xolos. Ular o'z yurtlaridan musulmonlar yurtiga kelganida, ya'ni o'z chodiri, qarindoshlari va mamlakatidan qancha olislashsa, shunchalik qudrati ortadi hamda e'tibori osha borib, ularidan amirlar, sipohsolarlar yetishib chiqadi”.



**Quyiroqda yana shunday deyiladi:** “Turklar shohi, donishmand va mutafakkir Afrosiyob aytganlari ichida mana shunday gap bor: “Turk dengiz chig'anoq'i ichidagi durga o'xshaydi; dur o'z uyida yashaganida qiyatnga ega bo'lmaydi, biroq u dengiz chig'anoq'idan tashqari chiqar ekan, qiyatli bo'ladi; shohlar tojini va kelinlar qulog'ini bezaydi”.

## MUNOSIB DUSHMAN

Turk lashkari muntazam suvoriyalar qo'shini bo'lib, faqat tekislikda emas, balki o'zlaridan oldingi ajdodlari kabi tog'larda ham jang olib borishga moslashgan edi. Ular bilan dasht uyg'urlari teng kelishi mutlaqo mumkin emas edi. Uyg'ular haqida xitoylar ijirg'anib yozadilar: “Janglarda saf tortmaydilar, asosiy bo'lakdan ajralib hamla, bosqin uyuştiradilar. Birdan hujum qiladilar, to'satdan chekinadilar, uzluksiz jang olib bora olmaydilar”. Turk zirhli suvoriyalari Xitoy piyoda askarlariga ham, forslarning otliq kamondozlariga ham munosib dushman bo'lib chiqdi.

## TURK XALQINING G'URURI

**Turklar qo'zg'olon ko'tarib, chorasiz bir g'alvaga qo'l urdi:** ular

daylatning o'rtasida, to'rt tomonidan dushman bilan o'ralgan, na ort, na ittifoqchi, na odatiy ustunlik bor edi. Ular o'zlarini buni tushunmasliklari mumkin emas edi, lekin baribir qo'zg'olon ko'tarildi. Ayni chog'da na xitoy manbalari, na turk manbalari haqorat va zulm haqida gapirmaydilar. Bitiklar ochiqdan ochiq, turklar o'z tur mushinini yaxshilash uchun emas, balki yovvoyi erk va hukumat uchun qo'zg'alganini aytadi. “Tabg'ach davlatiga o'z mehnat va kuchini o'ylamay sarflagan turk xalqi aytidi: “yaxshisi, o'zimizni halok qilamiz, yo'q qilamiz”, deya halokat tomon yura boshladi.

**“Bitiklarda aniq namoyon bo'lgan narsa shuki, turk xalqining g'ururi bo'ysunishni ko'tara olmas edi...”**

Ashina xon urug'idan bo'lgan shahzoda Nishubekni xon ko'tardilar va u o'zini xuddi sayilga kelayotganday tutgan va qo'zg'oltonni osongina tinchlantirmoqchi bo'lgan qo'shinni tor-mor keltirdi. 10 mingga yaqin xitoy askari o'ldi, asir tushdi. Boshqalari birlashib, qurshovni yorib o'tib qutuldi.

## OTLIQLARNING SELDAY HUJUMI

Ikkinci turk xoqonligi harbiy saltanat edi, shuning uchun Kultegin toshbitigida urush ancha yaxshi aks ettiligilgan.

Turk bahodirining qiyofasi “Roland haqida qo'shiq”dagi mardonni eslatadi, ayni chog'da jang taktikasi ham. Jangni og'ir qurollangan otliqlarning selday yopirilib qilgan hujumi hal etgan. Ularning qatori orasi keng, yoyilgan holda bo'lib, har ikki otliq oraliq'i har bir jangchi mustaqil harakat qilishiga imkon bergen. **“Kultegin Bayirqu oq otini minib, otolib hujum qildi. Bir erni o'q bilan urdi, ikki erni jips qilib sanchdi. O'sha hujumda Bayirquning oq ayg'irining kuragini sindirdi”.** Undan keyin Bashg'u degan bo'z otni minib, turgashlar safiga o'zini uradi. Sholchi degan oq otida ikki qorluqning boshini oladi. Izgillar bilan savashda Sholchini yo'qotadi va Azman degan oq otni minib, olti erni nayza bilan sanchdi, yettinchisini qilichladi.

## F. ERGASHEV tayyorladi.

### TURONNING JANGOVAR QUROLLARI

*Miloddan avvalgi IV asr*

**Akinak** – miloddan avvalgi IV asrlarda Markaziy osiyolik jangchilar mazkur nom bilan mashhur bo'lgan kalta qilichlardan foydalangan. Akinak o'ng tomonga taqilgan.

**Sigaris** – miloddan avval yashagan ajdodlarimizning jangovar boltalari shunday nomlangan.

**Kamon** – bu qurol miloddan avvalgi V asrda skiflarnikidan ko'ra eng murakkabi bo'lgan. Baqtriyaliklar hamda so'g'diyonaliklar, parfiyaliklar va xorazmliklarning kamonlari qamishdan yasalgan.

**Sovut** – Kvint Kursiy Rufning yozishicha, Markaziy Osiyoning dasht jangchilari “temir plastinka”lardan iborat sovtularga ega bo'lgan. Arrian ma'lumotiga ko'ra, jangchilar mustahkam temir sovtular kiyib jangga kirgan.

**Otning himoya anjomlari** – Gerodotning yozishicha, massagetlarning otlari ko'krak sovtular bilan himoya qilingan. Arxeologiya ma'lumotlariga ko'ra, otlarni himoya anjomlari bilan jihozlash dunyoda birinchi marta Markaziy Osiyoda joriy qilingan. Bu muhim yangilik keyinchalik g'arbga – Eronga, janubga – Hindistonga, sharqqa – Xitoya tarqalgan.





Muddatli harbiy xizmatda qad rostlagan o'g'lolar bugun ma'lum sinovlarni ortda qoldirdi. Vatanga qasamyod burchini ado etib, nazariy va amaliy mashg'ulotlarda toblanmoqda. Suhbatimiz g'ayrati jo'sh urib turgan Vatanimizning mana shu navqiron posbonlari haqida.

### "Vatanga qasamyod onlarini unutmayman"



**ODDIY ASKAR  
XURSHID JUMABEKOV**

- Forish tumanidagi Qalba qishlog'ida voyaga yetganman, - deydi muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Xurshid Jumabekov. - O'smir yoshdan boshlab avtomobilarni ta'mirlashga qiziqqanim uchun darsdan bo'sh paytlari ustaga shogird tushib shu hunarni o'zlashtirib bordim. Umumta'lim maktabini tugatib, avtomobilarni ta'mirlash ustaxonasida ishladim. O'g'il bola voyaga yetganidan keyin, albatta, dilida harbiy xizmat o'tash maqsadi bo'ladi. Men ham yigitlik burchimni o'tashga harakat qildim va ma'lum sinovlardan so'ng muddatli harbiy xizmatga munosib topildim. Aslida buni omad deyidilar. Chunki sanoqligi do'stlarimgagina yigitlik burchini o'tash nasib etmoqda. Armiya safidagi ilk sinov ota-onam sog'inchi bo'ldi. Keyin barvaqt turishga biroz qiyaldim. Kamchiliklarimni tuzatishda vzvod komandiri kapitan Nozim Ismatov hamda guruh komandiri I darajali serjant Said Haydarov yaqindan yordam berdi.

Vatanga qasamyod onlarini aslo unutmamasam kerak. Tantanali tadbirda qaddingni tik tutib sadoqat ontini ado etish juda-juda shukuhli. Vatanga qasamyod tadbiriga ota-onam va yaqinlarim keldi. Ularning hayajoni ham menikidan kam emasdi. Ayni fursatda harbiy xizmat ko'nikmalarini chin dildan ado etib kelyapman. Safdosh do'stalarim oddiy askarlar - Bahodir Soliyev, Jahongir Abdumalikov, Ma'ruf Shomurodov bilan harbiy xizmat ko'nikmalarini o'zlashtirishda bir-birimizga yaqindan yordam beryapmiz. Maqsadim - harbiy xizmatdan so'ng o'zim sevgan sohada bilim olib, yoqtirgan kasbimning yetuk mutaxassisini bo'lish.

To'rt qizdan keyin o'g'il farzand ko'rgan Faxriddin aka va Gulgora opa

# VATANNING NAVQIRON POSBONLARI

Kurshidbekning istiqboliga ulug' orzular bog'lagani aniq. Farzandlari uchun tun-u kun duoda bo'lgan ota-ona o'g'llariga askarlik sharafi nasib etganidan faxrlansa arziydi.

### Er yigitga yetmish hunar oz



**ODDIY ASKAR  
SHIRINBEK ABDURAHMONOV**

Jizzax viloyatinining Sharof Rashidov tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askar Shirinbek Abdurahmonov bobo va buvisining qo'lida ulg'aygan. Odatda kattalar qo'lida voyaga yetgan yigit-qizlar mehnatkash, mehribon, milliy qadriyatlarga e'tiborli bo'lib qad rostlaydi.

Umumta'lim maktabidan so'ng Shirinbek Jizzax shahridagi kasb-hunar kollejining avtomobilarni ta'mirlash chilangarligi yo'nalishida tahsil olgan. G'ayratli yigitcha 16 yoshidan boshlab nafaqat avtomobilarni ta'mirlash bilimini o'zlashtirish, balki mashhur "Jizzax somsa"ni tayyorlash sirlarini egallash uchun shogird tushgan. Intilishi, mehnatkashligi bilan tengqurlaridan ajralib turgan Shirinbek bobosining "er yigitga yetmish hunar oz", degan o'gitiga amal qilib, oilada o'g'il bolalar bilishi lozim bo'lgan hunarlarni ham egallab borgan. Armiya maktabi esa uni er yigitlar safiga qo'shdidi.


- Muddatli harbiy xizmatga kelganimdan so'ng har bir yigit Vatan oldidagi burchini o'tash kerak ekan, degan xulosaga keldim, - deydi oddiy askar Shirinbek Abdurahmonov. - Har sohaning o'z o'rnini bora, biroq harbiy xizmat o'g'il bola uchun haqiqiy hayot maktabi ekanini xizmatga kelib his qildim. Dastlabki sinov onlari, ya'ni ilk ko'nikmalar va moslashuv jarayoni men va safdosh do'stalarim uchun mashaqqatlari kechgan bo'lishi mumkin, ammo qat'iy tartib-intizom o'zimizni er yigitlardek tutishga zamin yaratdi. Harbiy xizmatda kelajak maqsadim shakllandi. Niyatim - xizmatni chin yurakdan ado etib, moliya sohasida tahsil olish. O'z biznesimni rivojlantirib, xalqimga xizmat qilish.

Ishonch va qat'iyat ila yaratuvchanlikka intilib turgan oddiy askar Shirinbek Abdurahmonovning istiqbol rejasini hayot yo'lini nurli etishiga ishonamiz.

### "Armiya hayoti mutlaq boshqacha"

Ishonch Muhammadbekka tayanch bo'lish bilan birga, mas'uliyat ham yuklaydi va ulug' ishlarga qodir etadi, deb ishonamiz.

### Shoir posbon



**ODDIY ASKAR  
SHAVKAT NURJOVOV**

Posbonlar orasida she'r qoralaydigan ijodkorlar ham uchrab turadi. Ular she'r yozish texnikasidan u qadar voqif bo'lmalar-da, nazmga qiziqishlarining o'zi tahsinga sazovor. Chunki yuragiда eгу tuyg'ular jo'sh urgan, uni oqqa ko'chirish uchun qo'liga qalam olishga qodir insonda vatanparvarlik tuyg'usi kuchli bo'ladi.

Jizzax viloyatinining G'allaorol tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askar Shavkat Nurjovov ot sportiga, ko'pkariga qiziqish bilan birga, she'rlar mashq qilib turadi. Bu haqda uning o'zidan eshitamiz:

- Otamni Ahror chavandoz deyishadi. Men ham ko'pkariga qiziqib, bellashuvlarda ishtirot etib sovrinlar olgaman.

Qiziqishlarimdan yana biri - she'r yozish. Bu borada ustozim Beknazar Qorajonov yaqindan yordam berdi. She'rlarim "G'allaorol ovozi" gazetasida e'lon qilingan.

Maqsadim she'r yozishni davom ettirib, harbiy xizmatdan so'ng O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga o'qishga kirish. Hozirgi asosiy burchim esa harbiy xizmat ko'nikmalarini mustahkam egallab borish. Xizmatning ilk davri, albatta, oson kechmaydi. Yigitlardi sabr, bardosh va iroda sinovdan o'tadi. Men va safdoshlarim mana shu moslashuv bosqichidan yaxshi o'tdik, Vatanga qasamyod burchini chin dildan ado etdik. Tadbirga kelgan yaqinlarimni, ota-onam va buvijonimni ko'rib, sog'inch va quvonchdan ko'zlarimga yosh keldi. Niyatim - ontimga munosib xizmat qilish.

Har bir askarning o'z aytar so'zi, yuksak maqsadi bor. Oddiy askar Shavkat Nurjovov ham xuddi shunday.

Maqolamizni uning bobosiga bag'ishlagan she'ri bilan yakunlaymiz:

*Bobom kirdi to'qsong'a,  
Fayz berar xonadonga.*

*Bizni chorlar o'qishga,  
Maslahatgo'y har ishda.*

*Mehr bor ko'zlarida,  
Sehr bor so'zlarida.  
Rahmat sizga, bobojon,  
Hamisha bo'ling omon!*

**Zulfiya YUNUSOVA,  
"Vatanparvar"**

Tarixdan ma'lumki, insoniyat sivilizatsiyasida turli ashvo va hayvonlarning ko'z ilg'amas, lekin beqiyos darajadagi o'rni bor. Agar ilmiy nuqtayi nazardan yondashilsa, bunga ko'p misollar keltirish mumkin. Birgina bronza va temir asrida it va otning qo'lga o'rgatilishi dastlabki kishilik jamiyati taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan.



# OT HAQIDA HAQIQAT



Yana turkshunos olimlar va tarixchilarining e'tirof etishicha, turkiy xalqlar tomonidan uzangining kashf etilishi ularning harbiy-ijtimoiy hayotida ulkan burilish yasagan. Ta'kidlash kerak, yuqoridagi fikrlar otning insoniyat o'tmishidagi o'mi va ahamiyati nechog'li ekanini asoslab beradi. Bugungi kunda ham ot bilan bog'liq ko'p asrlik qadriyatlarimiz borki, ta'bir joiz bo'lsa, ular ming yillardan beri turkiy xalqlarning milliy kamolotiga xizmat qilib kelmoqda. Quyida ana shu haqda fikr yuritamiz.

Ot xosiyatlari bo'ladi. Eskilarning aytishicha, u egasining xonadoniga rizq tilar ekan. Bizda shunday naql bor: "Otingdan ayirlang ham jakkamik (*yakkamix*)ingni buzma". Jakkamik – ot boyylanadigan, baquvvat yog'ochdan qilingan qoziq. Uzunligi uch metr atrofida bo'lib, yarmi yet ostiga ko'miladi. Otni shunga bog'lashadi. Odatda yangi ko'chib chiqqan uy egalari oti bo'lmasa-da, kelajakda bizning hovlida ham ot rizq tilab tursin degan niyatda jakkamik o'natadi.

**Yana "Ot aqli bo'ladi" deyishadi.** Ularning aksariyati odam tanlaydi. Yoqtirmagan kishisini yoniga yo'latmaydi. Uloqchi otlarda shunaqa xususiyat bor. Bulung'urning Oqtepa bozorida shunday voqeaga guvov bo'lganman. Dallollarning g'ala-g'ovuri ostida uch yoshli toyni savdo qilishdi. Narxi bir to'xtamga kelinib, baraka olingach, yangi xo'jayini toyning arqonini yecholmadi. Jonivor uni yaqinlashdirmadi. Shunda yilqining avvalgi egasi otga mast holda yaqinlashmasligini aytib, samanni bozordan tashqariga chiqarib berdi. Otlarning biz bilmagan va e'tibor bermagan nozik xususiyatlari ko'p. Sinchiklab kuzatgan, u bilan hamnafas yashagan kishilargina sir-sinoatga boy ekanligini yaxshi bilishadi.

**Yana bir misol:** odatda otlarning ayili chap tomonidan tortiladi. Va shu tarafdan miniladi. Yaxshi

yilqi o'ng tomonidan minishga yo'l qo'ymaydi. E'tiborli tomoni shundaki, ayil chap tomonidan tortilganidan keyin chavandoz chap oyog'ini uzangiga tirab, o'ngini oshiradi. Ot ham dastlab o'ng oyoqdan qadam tashlaydi. Bunda o'z-o'zidan chavandoz va otning o'ng tomoni bilan harakatlanishi uyg'unlashadi. **Sharq xalqlaridagi "Otliqning ishi o'ngidan keladi"** degan naql ana shu uyg'unlikdan kelib chiqqan bo'lsa, ajab emas. Ba'zi bir qirchang'i va cho'bir otlar bundan mustasno. **Qirchang'i** – uzoq yillar ko'pkari qilgan, qartayib qolgani bois, aravaga qo'shiladigan, yuk tashish, mol-ko'y boqishda ishlataladigan ot. **Cho'bir** – ko'pkari qilolmaydigan, tezligi past, umuman olganda zoti buzuq ot. U ham asosan xo'jalik ishlarda ishlataladi. Bulung'urlik ot ishqibozlari cho'bir bilan qirchang'i shunday farqlaydi. Yana yilqini ikki yoshgacha qulun, ikkidan uchgacha toy, uchdan to'rtgacha g'unon, to'rtdan beshgacha do'nun deb atashadi. Besh yoshida ot bo'lar ekan.

**Ularni el orasida pokiza jonivor deyishadi.** Haqiqatan ham ot boshqa jonivorlarga qaraganda toza yuradi. Otbozlarining aytishicha, mabodo sayisxona biror kun tozalanmay qolib ketsa, otlar bezovta bo'lishar ekan. Shuningdek, ular har qanday joyda dumalamaydi. Dumalash uchun joy tanlaydi. Ilgari dadam kunda bir marta uloqchi otlarini dumalatgani olib chiqardi. Ularning joy tanlashini ko'p kuzatganman. Otlar hech qachon eshak dumalagan joyni tanlamaydi.

**Azaldan ot va inson o'rtasida qandaydir yaqinlik bor.** Shu bois asrlar osha badiiy adabiyotlarda ot haqida ko'p yozilgan. Hatto **hadisi sharifda ham "Farzandlaringizni ot minishga o'rgating", deyilgan.** Nazarimda, ular farosatliligi va o'tkir zehnliligi bilan boshqa hayvonlardan ajralib tursa kerak. Qadimda ota-bobolarimiz farzand tarbiyasida otdan unumli foydalishgan. Sir emas, ot ustida o'tirgan kishining ruhiyati sog'lomlashadi. Balandlik odamni sergaklantiradi. Uni boshqarish jarayonida yosh bolaning abjirligi va jasurligi ortadi. Egar ustida eshakdag'i kabi beparvo emas, hushyorroq bo'ladi. Otning tez chopishi odamni chiniqtiradi. Yuqoridagi hadis negizida ushbu tarbiya usuli yashiringan bo'lsa kerak, nazarimda.

**Odatda otlarni ko'pkarida sinashadi.** Chunki har qanday otning oyoq olishi uloqda ma'lum bo'ladi. Yilqini bu tarzda sinovdan o'tkazish ajoddarimizdan qolgan. Bolaligimda bobom Buxoro amirligi qo'shiniga ot to'plashda ham biz tomonlarda ko'plab uloq marosimlari o'tkazilganini aytib bergan. Ko'pkari ko'p asrlik musobaqa. U azaldan turkiy xalqlar hayotining ajralmas bo'lagi bo'lib kelgan. Unda otlar bilan birga polvonlarning or-nomusi, g'ururi, abjirligi va dovyurakligi sinalgan. Polvonlik qon quvadi. Ota-bobolarida chavandoz o'tgan bo'lsa, albatta avlodlaridan biri ot chopadi.

Bulung'urda bir zamonlar Azim polvon degan chavandoz o'tgan. Uning o'g'li ham Suyun polvon deb nom qozondi. Suyun polvonning Zohid, Shuhrat degan farzandlari hozirgi kunda Bulung'urning oldi polvonlaridan.

Nevarasi Elmurod polvon ham yaxshi chavandoz. Polvonlarning aytishicha, chavandoz mard bo'lishi kerak. Shu bilan birga polvon bo'lishda kuchning o'zi kifoya qilmaydi. Buning uchun kishida mardlik, olivjanoblik, tantilik xususiyatlari bo'lishi lozim. Ilgari Baxmalda Turob degan polvon bo'lgan. Aytishlaricha, polvon do'stlarining iltimosiga ko'ra, paxsachi do'sti bilan qo'lda kuch sinashgan. Uzoq vaqt davom etgan bellashuvda polvon yengilgan. Natijada o'rtoqlari uni mazax qilib kulishgan. Shunda u: men mezbon, raqibim mehmon edi, shuning uchun uni mulzam qilmadim, deb javob bergen. Keyinchalik paxsachi do'sti bilan alohida uchrashganda **"Men o'shanda rostdan ham yengiluvdim, lekin ko'pkarida tortishsak, egaring bilan uzib olaman"**, degan ekan. Nagzi past odamdan ham polvon chiqmaydi. Nagzi past – dangalchi va halol emas, degani.

**Ko'pkari odamni tilga tushiradi.** Ot egasining nomini elga tanitadi. Tulpor bilan birga egasining nomi ham olam kezadi. Birovlar ko'z-ko'z uchun ham ot boqadi. Ko'pkari beradi. Baxmalda bir ko'pkarida Shertoy polvon "Tayson" laqabli otida eng katta solim (*sovrin*) – tuyani oldi. Bakovul shunday e'lon qildi. "G'allaorlik Shertoy polvon urgutlik Zayniddinboyning otida tuyaga tashladti". Yil-qining qancha vaqt ko'pkari qilishi aynan bir davr bilan chegaralanmaydi. Ilhom polvonning aytishicha, o'tgan asrning 80-yillarda o'lkamizdag'i uloq marosimlarda "Vaska" laqabli ot mashhur bo'lgan. U 3 yoshida katta solimlardan biri – toyga tashlagan. 25 yoshida Baxmalda bir ko'pkarida oyog'i sinib, o'lgan.

**Darvoqe, uloqchi otlarning el ichida o'ziga xos laqabi bo'ladi.** Laqab polvon yoki egasi tomonidan otlarning ayrim xususiyatlaridan kelib chiqib yoki tilga tushgan tulporlarga havas qilib qo'yiladi. Ayni paytda **Samarqand va Jizzax hududlaridagi ko'pkarilarda quyidagi otlar mashhur:** "Yantar" (egasining aytishicha shu nomdag'i ot bor), "Qorabayir" (zoti shunday), "Vaska" (yuqoridagi shu nomli otning surriyoti), "Ko'kkaptar" (rangi ko'k, chavandozning aytishicha, kaptardek yengil chopadi), "Mishka" (shu nomdag'i sportchi ot bor), "Jiyron" (rangi shunaqa), "Tanka" (polvonning aytishicha, har qanday to'dani yorib o'tadigan ot), "Bo'zsaman" (rangi shunday), "Delfin" (shu nomdag'i sportchi ot bor).

Bugun otning o'mini texnika taraqqiyoti mahsuli – avtoulovlar egallagan hamda ularga bo'lgan ehtiyoj anchagini susaygan payt. Shu bois ot bilan bog'liq qadriyatlarimiz va urf-odatlarimiz yo'qolib bormoqda. Qolganlari ham tadqiqotchilarini kutib yotibdi. Kezi kelganda shuni ham ta'kidlash lozim, mazkur mehnatsevar jonivorlar xarakteri badiiy adabiyotlarda tatbiq qilingani kabi ilmiy nuqtayi nazardan ham o'rganilsa, foydadan holi bo'lmaydi. Ayonki, ming yillardan beri insonning eng yaqin do'sti hisoblangan jonivorlarning tiynatidan olamshumul ixtiolar zohir bo'lajak.



# KAVFLI KO'Z KASALLIKLARI

Inson tanasidagi mushaklar orasida eng faoli ko'z sanaladi. Qolaversa, ko'z inson tanasidagi eng muhim sezgi a'zolaridan biri bo'lib, tashqi axborotlarning 70 foizi aynan u orqali qabul qilinadi. Shu boisdan ko'zlarning biror kasallikka chalinishi jiddiy muammo va qator noqulayliklar keltirib chiqaradi.



Misol uchun, qorachiqning yoshlanishini olaylik. Afsuski, ko'pchilik insonlar ushbu holatga unchalik e'tibor qilavermaydi. Oqibatda bu narsa ko'zda jiddiy asoratlarni keltirib chiqaradi. Ko'z yoshlanishiga olib keluvchi omillar turlicha bo'lgani bois uni davolashda, albatta, okulistga murojaat qilish, uning sababini aniqlash hamda mutaxassisning tavsiyalariga riyoga qilish zarur. O'zboshimchalik bilan muolajalarni qo'llash esa keyinchalik tuzatib bo'lmas muammolarga olib kelishi mumkin.

Aslida ko'z yoshlanishi gipersekretor hamda retension turlarga ajratiladi. Gipersekretor jarayon ko'zyosh suyuqligining me'yordan ortiq ishlab chiqarilishi bo'lsa, retension turi ko'zyosh yo'llari o'tkazuvchanligining buzilishi bilan xarakterlanadi.

Gipersekretor ko'zyosh ajralishini keltirib chiqaruvchi omillar bir qancha. Xususan, allergiya, konyunktivit, ko'z muguz pardasining mexanik yoki kimyoiy zararlanishi, infektion kasalliklarning asorati, keratit shular jumlasidan. Bu holatda muolajani boshlashdan avval bezovtalikni keltirib chiqarayotgan kasallik aniqlanib, shundan so'ng davo choralarni birlgilidagi olib borilishi maqsadga muvofiq. Ana shundagina kutilgan natijaga erishiladi.

Retension ko'rinishi esa ko'zyosh ajralishidagi ayrim buzilishlar bilan xarakterlanadi. Ushbu holat ko'zyosh qopchasining yallig'anishi, ko'zyosh kanalining qurib qolishi, burun bo'shilg'i kasalliklari – gaymorit, rinit, polip va shilliq qavat shishlari sabab kelib chiqishi mumkin. Bu vaziyatda esa ko'pincha jarrohlik amaliyoti talab etiladi.

## "QURUQ KO'Z" SINDROMI

"Quruq ko'z" sindromi (*quruq keratokonjunktivit*) – ko'z yoshi suyuqligining sifati yoki miqdori va uning funksiyasi buzilganligi sababli ko'zning yuzaki to'qimalarida noqulaylik keltiradigan kasallik.

Ushbu buzilishlar insonga noqulaylik hissi bilan birga ko'rish sifatining pasayishi, qovoqlar va shox parda kasalliklariga olib kelishi mumkin. "Quruq ko'z" kasalligi zamonaviy tilda sivilizatsiya kasalligi va megapolislar aholisi, dasturchilar, ofis xodimlarining kasbiy kasalligi ham deb ataladi.

Kasallikning ilk davrida bemorlar ko'zning nurga sezgirligi, og'riq, qichishish, quruqlik, ko'z ichiga qum kirgandek tuyulishi, achishish, xiralik yoki tuman paydo bo'lishi, ko'rish keskin pasayishidan shikoyat qiladi. Shunisi e'tiborga loyiqliki, dastlabki bosqichlarda ba'zi o'ziga xos yoki aniqlomatlar ko'pincha bo'lmaydi.

Kasallikning yengil shaklida sindrom ish samaradorligiga ta'sir qiladi, og'ir shaklda u ko'rishning buzilishiga va hatto ko'rlikka olib kelishi mumkin. Bu alomatlar ko'p hollarda tushdan keyin yoki kechqurun ko'proq sezilishi mumkin. Bemorlarda aksariyat hollarda noqulaylik gadjetlardan foydalanganda paydo bo'ladi.

## PROFILAKTIKASI

Bemor xonada havo namligini oshirishi, gadjetlardan ortiqcha foydalanishni kamaytirishi, tamaki tutunidan ochishi, kosmetika va ko'zni bezvota qiladigan boshqa mahsulotlardan foydalanishni to'xtatishi kerak bo'ladi. Zararni kamaytirish uchun ko'z gimnastikasi mashqlarini bajarish kerak. Ya'ni 30–60 soniya davomida ko'zni tez ochib yopish, ko'z olmalarini turli yo'nalishlarda aylantirish, ko'zni 5 soniya davomida mahkam yopish va bir vaqtning o'zida katta ochish va hokazo. Aslida kompyuterda ishlaydigan har bir inson har 30 daqiqada bir marta bunday ko'z mashqlarini bajarishni odat qilishi lozim.

Agar shundayam quruq ko'zlar haqida tashvishlanishda davom etsangiz va noqulaylik kuchaysa, albatta, oftalmologga murojaat qiling va terapevtik dori tanlang.

## YANA QAYSI TURI KO'P UCHRAMOQDA

Hozirgi vaqtida allergik va virusli konyunktivitlar hamda kompyuter sindromi kabi ko'z kasalliklari ham ko'paygan. Aksariyat hollarda ushbu kasalliklarga gigiyena qoidalariga riyoga qilmaslik, dori vositalarini shifokor maslahatisiz uy sharoitida qabul qilish hamda o'z vaqtida shifokorga murojaat etmaslik oqibatida kelib chiqadi.

Jumladan, dori vositalarining noto'g'ri ishlatalishi allergik asoratlarga olib kelishi va kasallikni og'irlashtirishi mumkin. Masofaviy ish ko'payishi natijasida kompyuterda uzoq vaqt ishlash ham ko'rish o'tkirligiga zarar yetkazishi mumkin.

Bunday holatlarning oldini olish uchun ko'z mashqlarini muntazam qilib borish, kompyuterda ishlaganda har 20 daqiqada 20 soniyaga uzoqqa qarab, ko'zlarga dam berish lozim bo'ladi.

Yana pterigium – ko'zning shilliq qavatining (*konyunktiva*) shox parda ustiga o'sishi ham ko'z kuzatilmoqda. Ko'pincha pterigium ko'zning ichki burchagida kuzatiladi va shox pardanining markazigacha o'sib kirishi mumkin. Bu holat ko'zning qizarishi, yoshlanishi, qadalishiga, keyinchalik ko'rish o'tkirligining pasayishiga olib keladi.

Pterigium asosan katta yoshdagи odamlarda uchrayıdi. Unga ko'p vaqt shamol, chang, issiq va atmosferadagi ximik moddalar ko'p bo'lgan joylarda ishlaydigan odamlar moyil hisoblanadi.

## QANDAY OMILLARGA BOG'LIQ

Ko'z kasalliklari ichida naslga, yoshga, jinsga bog'liq bo'lganlari ham, bog'liq bo'lganlari ham mavjud. Misol uchun, miopiya yoki glaukomada nasliy faktor muhim ahamiyatga ega. Infektion ko'z kasalliklarining esa naslga bog'liqlik joyi yo'q.

## ULARDAN SAQLANISH UCHUN...

Ko'z kasalliklaridan saqlanish uchun, avvalo, gigiyena qoidalariga qat'iy amal qilish hamda hozirgi axborot texnologiyalari davrida urfga aylangan smartfon, planshet hamda kompyuter vositalaridan foydalanishda me'yorga riyoga etish lozim. Shuningdek, o'z vaqtida ko'zlarni tekshirtirib turish hamda dori vositalarini o'z bilganicha emas, faqatgina shifokor tavsiyasi bo'yicha foydalanish tavsya etiladi.

**Ayniso SHARPOVA,**  
**Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik**  
**gospitali oliy toifali shifokori,**  
**tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent**

# KASBIY TAYYORGARLIK VA KOMPETENTLIK

Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda harbiy ta'lim jarayonini ham mazmunan, ham shaklan o'zgartirish, bunda ta'lim oluvchilarga faqat ma'lum bir kompetensiyalar bo'yicha bilim berish emas, balki butun harbiy ta'lim jarayoni davomida ular asosida faoliyat olib borishni ta'minlash nazarda tutiladi.

Fan va texnikaning rivojlanishi, Qurolli Kuchlarning zamonaviy va murakkab jangovar texnika hamda qurol-yarog'lar bilan ta'minlanishi, yangi ta'lim texnologiyalarining yaratilishi va boshqa shu kabi hozirgi zamonga xos o'zgarishlar ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan tobora yangi talablar qo'yemoqda. Bu esa, o'z navbatida, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni talab qildi. Kompetentlik nuqtayi nazaridan yondashuv harbiy ta'lim sifatini baholash

uchun ham juda muhim, chunki ta'lim oluvchi erishadigan asosiy ta'limiy natija kompetentlik hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashda ularning intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda, shuningdek ularni tarbiya sohasida innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Qurolli Kuchlar tizimida ta'lim texnologiyalarining tashkiliy, texnik va didaktik imkoniyatlardan xabardor bo'lishlari uchun sharoit yaratib qolmay, kasbiy faoliyatda ulardan samarali foydalanish borasidagi malakalarining mustahkmlanishini ta'minlaydi.

Harbiy pedagoglar kasbiy kompetentligini alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'naliш bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kompetensiya olingan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga qo'llay olish qobiliyati va layoqati hisoblanadi. Shuningdek, ta'lim sohasida kompetentlilik sifatida aniq vaziyatda kompetensiyani namoyon qilish tushuniladi.

Kasbiy kompetentlik shaxsning bilim, ko'nikma

va tajribalarining ijtimoiy-professional mavqeyi va o'ziga tegishli vazifalarini bajarish, shaxsning ichki dunyosiga kira olish, unga emotsiyalarini tashkiliy, texnik va didaktik imkoniyatlardan xabardor bo'lishlari uchun sharoit yaratib qolmay, kasbiy faoliyatda ulardan samarali foydalanish borasidagi malakalarining mustahkmlanishini ta'minlaydi.

"Kompetentlik" tushunchasi umuman olganda, kasbiy faoliyatga tayyorlanadigan barcha ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirlig kelgan. Psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik noan'anavy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarini bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanshish rejasiga egalik qilishni anglatadi.

Harbiy pedagoglarda kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalgalash oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni amalda qo'llay olinishi bilan izohlanadi.

Kasbiy kompetentlik harbiy pedagoglarda quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ldi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarini bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- noma'lum shaxsning kimligini aniqlashda;
- kutilmagan vaziyatlarda.

Kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chucher anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi va ushbu bilimlarni tarbiyalanuvchilarga bera olishi;

- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Kasbiy kompetentlikni bo'lajak ofitserlarda shakllantirishda quyidagi kompetentliklarni rivojlantirish lozim:

- ijtimoiy kompetentlik – harbiy pedagoglarda ijtimoiy munosabatlarda faoliyati ko'rsatish ko'nikmasi, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish ko'nikmasi;
- maxsus kompetentlik – harbiy pedagoglarda kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy vazifalarini oqilona hal qilish, faoliyatining natijalarini real baholash, bilim, ko'nikma va malakani izchil rivojlanishda borish, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi.

Ular o'zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

- psixologik kompetentlik – murakkab jarayonlarda sog'lam psixologik muhitni yarata olish, jarayon ishtiroychilarini bilan ijobji muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;


Vladimir LIXANOV,  
Qurolli Kuchlar  
akademiyasi  
katta o'qituvchisi

dunyoda ingliz tilini bilish boshqa mamlakat vakillari bilan muloqot qilish, turli mamlakatlardagi hamkasblar bilan tajriba almashish uchun ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi. Bu borada ham ChatGPTdan oqilona foydalanish yaxshi samara beradi.

Umuman olganda, ChatGPT bilan chet tilni o'rganish qiziqarli va samarali tajriba bo'lishi mumkin. Shunday ekan, ChatGPT yordamida o'sing, o'rganan va til ko'nikmalarigizni yaxhilang! Muloqotga kirishing, bemalol savollar bering, nutq qobiliyatizingizni mashq qiling va darsingizda ushbu innovatsion vositadan foydalanishning yangi usullarini o'rganing!

Dilobar NURIDDINOVA,  
Qurolli Kuchlar  
akademiyasi  
katta o'qituvchisi

Ilm-fan



Chet tilni o'rganish siz uchun yangi yo'llar va imkoniyatlarni ochishi mumkin bo'lgan muhim va hayajonli jarayondir. Bugun texnologiyaning rivojlanishi va ChatGPT kabi yangi vositalarning paydo bo'lishi bilan chet tillarni o'rganish yanada qulayroq bo'ldi.

## CHET TILNI O'RGANISHDA CHATGPT

ChatGPT bu chat ko'rinishidagi kompyuter dasturi bilan o'zaro aloqa qilish imkonini beruvchi innovatsion sun'iy intellekt texnologiyasi hisoblanadi. Tilni o'rganishda ushbu vositadan yordam sifatida foydalanish mumkin. Bu sizga tilni tushunishingizni yaxhilashga, so'z boyligingizni kengaytirishga va nutq qobiliyatizingizni mashq qilishga yordam beradi.

Chet tilni o'rganishda ChatGPTdan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri bu tilni istalgan vaqtida, istalgan joyda mashq qilish qobiliyatidir. Siz unga grammatika bo'yicha savollar berishingiz, iboralarni tarjima qilishingiz, chet tilda mavzularni muhokama qilishingiz, uning yordamida audioyozuvlarni tinglashingiz,

savollar berishingiz va nutqni mashq qilishingiz va ChatGPTdan darhol javob va fikr-mulohaza olishingiz mumkin. Bundan tashqari, ChatGPT nutqni o'rganish va tinglash qobiliyatlarini yaxhilashga xizmat qiladi.

Chet tilni o'rganish uchun ChatGPTdan foydalanishning asosiy nuqtalaridan biri bu amaliyotdir. ChatGPT bilan qancha ko'p chet tilda muloqot qilsangiz, tilni shunchalik yaxshi o'rganasiz. Vaqt o'tishi bilan lug'at boyligingiz kengayadi, grammaticangiz aniq bo'ladi va chet tildan foydalanishga bo'lgan ishonchingiz ortadi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlar va ofitserlar tayyorlashda xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'rganish muhim o'rnatadi. Negaki zamonaviy

# HARBIYLAR KITOBXONLIK

*bahsida bellashdi*



Shimoli-g'arbiy harbiy okrug miqyosida yosh harbiy xizmatchilar o'rtasida "Eng yaxshi yosh kitobxon" tanloving ikkinchi bosqichi bo'lib o'tdi. Unda Urganch va Nukus garnizonlaridagi harbiy qismlardan jami olti nafar yosh harbiy kitobxonlik bo'yicha bellashib, aql-u zakovatini, kitobga bo'lgan mehr-u muhabbatini namoyish etdi.



Qadimiylar yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma'naviy merosi, umumbashariy qadriyatlar, madaniyati, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizning noyob asarlarini asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, ularning nodir merosini, iibratli hayoti va ijtimoiy

faoliyatini har tomonlama chucher o'r ganish va targ'ib etish, yosh harbiy xizmatchilarimizni o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o'rtasida kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish maqsadida o'tkazilgan tanlov harbiylarning kitoblarga mehri bo'lakcha ekanini namoyish etdi.

Qizg'in bahs-munozaraga boy o'tgan tanlovdan "O'zbek adabiyoti bilimdoni", "Jahon adabiyoti bilimdoni", "Buyuk mutafakkir va adib" hamda "She'riyat" shartlari yosh kitobxonlarni mutolaaga bo'lgan cheksiz muhabbatini sahnada yoritib, harbiylarning kitobsevarligini ochib berdi. E'tiborlisi ushbu tanlovda yaqindagina saflarni to'dirgan muddatli harbiy xizmatchilar ham ishtirok etib, kuchli raqobat muhitini ta'minlab turdi.

G'oliblarga okrug qo'mondonligining faxriy yorliqlari va kitoblar jamlanmasi taqdim etildi.

Harbiy okrug bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan harbiy xizmatchi Mudofaa vazirligi miqyosida bo'lib o'tadigan final bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**

## Sayyor qabul



## IJTIMOY HIMoya

Chirchiq harbiy prokururaturasi tomonidan Toshkent viloyati Milliy gvardiya boshqarmasida ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.

Unda tegishli tashkilot va idoralardan jalg etilgan mutaxassislar ishtirokida harbiy xizmatchilar, xodimlar, ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar tinglandi.

Jami 20 ta murojaatdan 5 tasi joyida qanoatlantirildi, 5 tasi yuzasidan huquqiy tushuntirish berildi va 10 tasi nazoratga olingan holda mas'ul idoralarga yuborildi.

Qabuldan so'ng boshqarma hududida olib borilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlarining ahvoli o'rganilib, tegishli ko'rsatma va tavsiyalar berildi.

**Adliya mayori G'iyosiddin RAXMONOV,  
Chirchiq harbiy prokurorining katta yordamchisi**

## Qatra

Bolakay qarshisiga kelib to'xtagan avtobusga o'ychanlik bilan tikilib turardi. Yo'lovchilarning tushib-chiqishini kuzatayotgan haydovchining ko'zi daf'atan unga tushdi. Horg'in yuzko'zlariga tabassum yugurdi. Mittivoyga quvnoqlik bilan qo'l silkidi.

## SOG'INCH

Bolakay dadillanib yaqinroq bordi. Nimanidir so'ramoqchiligidan bilib, haydovchi uni gapga tutdi:

- Avtobusga chiqqan kelyaptimi?

- Avtobusingizga hammani mindirasizmi?

- Ha, hammani.

- Kattamni (buvi) ham mindirib olib kelung!

- Kattang qayerda?

- Qishloqda?

Haydovchi jilmayib, uning yoniga tushdi, qarshisiga cho'kkalab, erkalab yelkasiga qoqdi:

- Yaxshi, kattangni ham olib kelaman, sen telefon qilib qo'y, - shunday dedi-yu, yengil sakrab avtobusga chiqdi.

Bola do'kondan chiqqan onasining qo'llariga yopishib, tezroq kattasiga telefon qilib berishni so'radi.

- Alo, katta, avtobuschi sizni olib kelar ekan, avtobusga chiqib kelung!

- Umarjon, shaharda adashib qolaman. Avtobusga chiqqanidan keyin qayerda tushman, bilmaymanku?

- Tarvuz sotadigan joyda tushasiz...

**Inobat NODIRSHOH**

# **“PGS” USKUNALARINI XARID QILING**



Non – O'zbekistonda ovqatlanish ratsionining ajralmas qismi. Biz har kuni albatta non xarid qilamiz. Agar ertasiga u qotib yoki mog'orlab qolsa, xunob bo'lamiz.



Respublikamizning ko‘plab shahar va qishloqlarida non pishiriladi. Ular hatto bir necha kun saqlanganidan keyin ham iste’mol qilinadi. Bunda gap ana shu ajoyib nonlar uchun tayyorlanadigan xamirda emas. Xamir qorishmasi istalgan non zavodidagiga o’xshash. Buning siri kichik novvoyxonalarning qizdiruvchi keramik elementlarida yashiringan.

Nega haqiqiy o'zbek obinonini gaz plitasining pechida ham, non zavodida ham yopib bo'lmaydi? Ma'lum bo'lischicha, buning ilmiy isboti bor. Hamma gap standart pechkalarni tayyorlash uchun ishlatalgan metalldan targaluvchi to'loinlarda ekan.

Toshkentdagi "PGS" firmasi mutaxassislari keramika tarqatadigan to'lqlarning ana shu xususiyatidan foydalanishga qaror qildi va o'ziga xos keramik qizdiruvchi elementlardan foydalangan holda mininovvoyxona yaratildi. Natijada tandir xususiyatlari ega bo'lgan elektr pechi paydo bo'ldi. Bunday mininovvoyxonada yopilgan non o'z sifati va xususiyatlari ko'ra, bozorlarda sotiladigan nonlardan farq qilmaydi.

Obinondan tashqari, "PGS" mininovvoyxonalarida o'nlab turdag'i non mahsulotlarini, birinchi navbatda, buxankalarni pishirish mumkin. Bunday mininovvoyxonalarda ularning sifati qanchalik vaxshilanishini tasavvur qila olasizmi?

"PGS" mininovvoyxonalarida keramikaning qo'llanishi ularga metall qizdiruvchi elementli namunalarga nisbatan ekologik jihatdan ustunlik beradi.

Bundan tashqari, "PGS" mininovvoyxonalarini mahalliy elektr tarmoqlariga moslashtirilgan. Masalan, bir qator xorij mamlakatlarida ishlab chiqarilgan mininovvoyxonalar 0,2 foizgacha bo'lgan elektr kuchlanishi o'zgarishlariga chidaydi, "PGS" mininovvoyxonalarini esa -10 foizgacha. "PGS" mininovvoyxonalarining bunday xususiyati ulardan uzoq muddat davomida foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

Keramik qizdiruvchi elementlarning qo'llanishi pechkadan foydalanish xavfsizligi darajasini ancha oshiradi, chunki keramika dielektrik material hisoblanadi.

"PGS" mininovvoxonalarini xarid qilishda ishlab chiqaruvchi 12 oy mobaynida to'xtovsiz ishslash va besh yil mobaynida bepul servis xizmati ko'rsatilishini kafolatlaydi. Kafolat muddati tugaganidan keyin ham servis markazi mutaxassislari har qanday nosozlikni hech bir muammosiz bartaraf etishda yordam ko'rsatadi. "PGS" mininovvoxonalarini 10-15 yil oldin xarid qilgan mijozlarning ularni ta'mirlash maqsadida korxonaga tashrif buyurishi hamda bu mahsulotdan mamnun ekanini izhor qilishi ham bunday mininovvoxonalarning ishonchliligi va uzoq muddat xizmat qilishini yaqqol isbotlaydi.

Bugungi kunga kelib "PGS" XIX mininovvoyxonalarning beshinchi avlodi ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yan. Bu "PGS-020" bo'lib, u nondan pirojniygacha bo'lgan 50 turdag'i mahsulotni tayyorlash imkonini beradi. "PGS-020" ikki kamerali bo'lib, unda bir vaqtning o'zida ikkita mahsulot - masalan, non va somsa pishirish mumkin. Mininovvoyxonaning o'zi esa kichkinagina - og'irligi atigi 140 kilogramm, bino ichida bir kvadrat metrdan kamroq joyni egallaydi.

“PGS-020” yarim soat mobaynida 32 ta buxanka, yetti daqqaq ichida 36 ta yopgan non, 10 daqiqada 100 dona somsa pishirib berishi mumkin. Bunday texnika ko’plab ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun juda kerakli hisoblanadi.

Akbar ALLAMUBODOV



**Manzil:**  
Toshkent shahri  
Gavhar ko‘chasi,  
125-uy.



**Murojaat uchun  
telefonlar:**

**95 169-78-51**

**95 169-78-52**

**95 169-78-53**

**HANKORU İĞİMİZ BARDAVOM BO'1 SIN!**

Ayni paytda o‘zining qutlug‘ sanasini munosib nishonlayotgan “Vatanparvar” gazetasining 32 yilligi bilan Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan “PGS” mas‘uliyati cheklangan jamiyatni iamoasi qizq‘in tahrirkaydi.

Shuni mammuniyat bilan ta'kidlash joizki, "Vatanparvar" gazetasi o'tgan davr mobaynida uni bilgan, tanigan va o'qigan kishilarga hamroh ya suhhatdosh bo'lib goldi.

Ayniqsa, keyingi yillarda O'zbekiston bozorlarida turdosh korxonalar orasida yetakchilik qilayotgan "PGS" firmasining keng turdag'i uskunalarini va ishlab chiqarishda erishayotgan yutuqlari "Vatanparvar" gazetasi orqali keng yoritilib, o'z iste'molchilariga yetib bormog'da.

Fursatdan foydalanib, sevimli gazetamiz – “Vatanparvar”ni qutlug’ yoshi bilan chin dildan muborakbos etamiz!



Bolajon

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun

## BUYUK IXTIROLAR

# SOYABON

## qanday paydo bo'lgan?



Soyabon miloddan avvalgi XI asrda ixtiro qilingan. Uning paydo bo'lgan joyi Xitoy yoki Misrdir. Soyabon bu ikkala mamlakatda ham hokimiyat ramzi hisoblangan. Shuning uchun fir'avnlar va imperatorlar soyabondan foydalangan. Soyabon tutganlar oliy irq vakillari deb qaralgan.

Ular soyabon orqali yomg'irdan emas, balki quyoshdan himoyalangan. Birinchi soyaboning ilk ko'rinishi issiq kunnarda xizmatkor xo'jayinining boshiga olib yuradigan palma navdasi bo'lgan. Soyabon uchun avval bambuk, teri, qog'oz va ipakdan foydalangan. Dastlabki soyaboning balandligi 1.5 metr, og'irligi esa 2 kg edi. 1680-yili soyabon ko'rinishi Fransiyada yaratilgan. U oldingilariga qaraganda yengilroq bo'lgan. Lekin undan foydalanish noqulay edi.

Soyabon hozirgi holatga kelguncha - ko'p bosqichlarni bosib o'tdi. Ilk taxlanadigan soyabon 1715-yil 4-mayda Parijda ishlab chiqarilgan. U faqatgina quyoshdan himoya vazifasini o'tardi. 1750-yilda ingliz Jonas Xenvay yomg'irdan boshpana sifatida soyabonni ishlatgan. Shundan so'ng yomg'irda ishlatiladigan bo'ldi. 1969-yilda Bred Fillips taxlanadigan soyabon uchun AQShda ishlab chiqarish ruxsatini oladi. 1970-yilda sotuvga chiqaradi. Rangli soyabonlar XX asrdan ishlab chiqarila boshlandi.

# AQL va BOYLIK



Bir cholning to'rt o'g'li bor ekan. Bir kun chol o'g'illarini oldiga chaqirib:

- O'g'illarim, men qarib-qartayib qoldim, - debdi, - orangizdan bittangiz oila boshlig'i bo'lishingiz kerak. Kim aqli va davlatmand bo'lsa, u menga merosxo'r bo'ladi. Har qaysingiz menga aqli va davlatli ekaningizni ko'rsat!

Eng katta o'g'il zumrad ko'zli oltin uzuk taqqan qo'lini uzatib:

- Mana mening boyligim, boy odamda aql ham bo'ladi, - debdi. Ikkinchchi o'g'il zarbof choponini kiyib ko'rsatibdi:

- Shu paytda meni ko'rgan kishi boyligimga va aqlimga qoyil qoldi, - debdi.

Uchinchi o'g'il kumush va javohirlar qadalgan kamarini beliga bog'lab:

- Hech kim umrida bunday kamarni ko'rgan emas, - debdi.

Chol boshini chayqab, katta o'g'illariga hech nima demabdi. Kenja o'g'liga qarab:

- Nega sen indamaysan? Sen qaysi boyliging bilan maqtanasan? - debdi.

- Menda zumrad ko'zli uzuk ham yo'q, zarbof chopon ham yo'q, qimmatbaho kamar ham. Lekin mehnatkash qo'lim bor, botir yuragim, aqli boshim bor, - debdi.

Kenja o'g'ilning javobi cholga yoqibdi, bor-yo'g'ini unga meros qoldiradigan bo'libdi. Katta o'g'illariga esa uning so'zidan chiqmaslikni tushunitibди.

O'zbek xalq ertagi



# ASRAYLIK TABIATNI

*Eng yaqin do'stimiz tabiat,*

*Uni asrash burchimiz albat.*

*Hayvon va quşlarni sevamiz,*

*Gullarga mehrimiz beramiz.*

*Tabiat - tabobat deydilar,*

*Har giyoh shifobaxsh bilsang gar.*

*Qirlar-u adirlar yashnasin,*

*Lolalar chayqalib yayrasin.*

*Boyligimiz erur daraxtlar,*

*Toza havo, to'kin rizq ular.*

*Ko'chat ekib, yaratamiz bog',*

*Obod bo'lsin shahar-u qishloq.*

Zulfiya YUNUSOVA

# “VATANPARVAR” NING MARD O’G’LONI

Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti “Vatanparvar” birlashgan tahririyyati jamoasi nafaqat o’zlarining harbiy, ijtimoiy-siyosiy materiallari, balki ilmiy va ijodiy izlanishlari bilan yildan yilga yuqori natijalarga erishib kelmoqda. Chunki bugungi zamonaviy qalam ahli har sohada chuqur bilimlarga ega bo’lishi, mamlakatimiz va dunyoda kechayotgan jarayonlarni xolis tahlilchisi bo’Imog’i lozim. Katta leytenant Dilshod Ro’ziqulov jurnalistikaning zahmatli yo’lida ilm jilovini mahkam tutgan, bu makonda ijodiy izlanishlar olib borayotgan harbiy jurnalistlardan biridir.



U ayni vaqtida O’zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti “Vatanparvar” birlashgan tahririyyati katta muxbir sifatida faoliyat yuritmoqda.



Dilshod Ro’ziqulov turli tanlovlari, ilmiy-amaliy anjumanlar, jamoat ishlari faoliyati bilan tengdoshlaridan ajralib turadi. Mana shu harakatlari evaziga bir qancha yutuqlarni qo’lga kiritgan. U O’zbekiston Jurnalistlar uyushmasining a’zosi.

2020-yilda “Adabiyot” nashriyotida ijodkorning “Dehqoni so’z” kitobi 5 000 nusxada chop etilgan. 2023-yilda “Favqulodda vaziyatlar jurnalistikasi” o’quv qo’llanmasi, 2024-yilda “Harbiy jurnalistikada axborot integratsiyasining nazariy va amaliy xususiyatlari” nomli monografiysi nashr qilingan.

U 2023-yilda “Mahorat” tanlovida “Eng yaxshi badiyi asar uchun” nominatsiyasi bo'yicha 1-o'rinni egallagan. O’sha yili mudofaa vazirining “Namunalni xizmati uchun” ko’krak nishoni bilan taqdirlangan.

Dilshod Ro’ziqulov iste’dodi, iqtidori, bilimga chanqoqligi va tashabbuskorligi, turli tadbir hamda jamoatchilik ishlari dagi faoliyati bilan o’zining munosib o’rniga ega yoshlardan. U doimiy ravishda o’z malakasini, iqtidorini, bilim saviyasini oshirish ustida qat’iyat va sabr-toqat bilan ish tutadi.

Jizzax iftixori – “Oltin fond” a’zosi bo’lgan hamkasbimiz Jizzax viloyati Do’stlik tumanining Navro’t mahallasida tug’ilgan. U ilk mehnat faoliyatini “Do’stlik hayoti” gazetasidan boshlagan. Jurnalistikaga havas va qiziqish uni 2012-yilda O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakultetiga

yekladi. Universitetni imtiyozli diplom bilan bitirgan qahramonimiz dastlab 6 yil “Ma’rifat” gazetasida, so’ng “Turkiston”, “Toshkent oqshomi” gazetalarida ishladi. “Boshlang’ich ta’lim” jurnalida bo’lim muharriri sifatida faoliyat yuritdi. Orada O’zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika fakulteti magistraturasida ham o’qishga ulgurdi. Bu tahsildan so’ng 2019-yildan buyon Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti “Vatanparvar” birlashgan tahririyyatida katta muxbir bo’lib xizmat qilmoxqda.

Yaqinda hamkasbimizning mehnatlari davlatimiz tomonidan yana bir bor e’tirof etildi. Prezidentimizning 2024-yil 27-iyundagi qaroriga binoan, katta leytenant Dilshod Ro’ziqulov “Mard o’g’lon” davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti jamoasi “Vatanparvar” birlashgan tahririyyati katta muxbir katta leytenant Dilshod Ro’ziqulovni ushbu yuksak e’tirof bilan muborakbos etib, uning bundan keyingi ijodiy ishlari ulkan zafarlar tilab qoladi.

## TAHRIRIYAT

@Vatanparvargazetasi\_bot  
“Vatanparvar” birlashgan tahririyyati bilan bog’lanish uchun telegram bot



## SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI

